

Sharof  
Rashidov

*Serqi bilan  
q'olibman  
har on!*



УЎК 821.512.133-1

КБК 84(5Ў)6

Р 31

Халқимизнинг ардоқли фарзанди, атоқли давлат арбоби ва ёзувчи Шароф Рашидовнинг «Севги билан ғолибман ҳар он!» китобидан унинг ўқувчиларга таниш бўлган шеърлари билан бирга ҳали матбуотда эълон қилинмаган шеърлари ўрин олган.

Ўз халқи ва Ватанининг фидойи фарзанди бўлган атоқли адибимизнинг шеърлари билан қайта дийдорлашув ўқувчиларимизни мамнун этади деган умиддамиз.

Интеллектуал мулк объектларига барча ҳуқуқлар Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоа Фондига тегишлидир.

ISBN

978-9943-6100-6-4

© Sharof Rashidov nomidagi  
xalqaro jamoat Fondi, 2020.  
© «Niso Poligraf», 2020.

# Шароф Рашидов

Севги билан ғолибман  
ҳар он!

Sevgi bilan  
g'olibman har on!



TOSHKENT


«SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI XALQARO JAMOAT FONDI»

«NISO POLIGRAF»

2020

*Шароф Рашидов – Самарқанд Давлат  
университети филология факультети  
талабаси. 1938 йил.*

*Sharof Rashidov – Samarqand Davlat  
universiteti filologiya  
fakulteti talabasi. 1938-yil.*



# «Севги билан Ғолибман ҳар он!»

**И**нсоният тарихидаги энг шафқатсиз ва қонли уруш – Иккинчи жаҳон урушида қозонилган буюк Ғалабанинг 75 йиллиги нишонланадиган 2020 йил – қақшатқич жанглarda яқинлари ва қадрдон инсонларини йўқотган сайёрамиздаги миллионлаб оилалар учун муҳим сана ҳисобланади. Шубҳасиз, урушда қариндошлари фожиали вафот этган ҳар бир оиланинг ўз изтироби, омон қайтганларнинг эса бахтли тақдири билан боғлиқ порлоқ хотиралари бор.

1941 йилнинг июнида Самарқанд Давлат университетининг битирувчи-талабалари диплом иши ҳимоясини тугатиш арафасида Улуғ Ватан уруши бошланди. Бутун мамлакат фашистлар билан жангга, Ватан ҳимоясига отланди. 1941 йилнинг август ойидаёқ, ўнлаб университет ўқитувчилари ва юзлаб талабалар армияга жўнаб кетдилар.

Ш. Рашидов ҳам бир гуруҳ талабалар билан бирга кўнгиллилар қаторида Қизил Армия сафларига қўшилди ва Қирғизистон Республикаси пойтахти – Фрунзе (ҳозирги Бишкек) шаҳридаги пиёда аскарлар билим юртига юборилди. Билим юртидаги ўқиш даври 4 ой бўлишига қарамай, фронтдаги, айниқса, Москва остоналаридаги оғир вазият туфайли октябрь ойидаёқ барча сержантлик таркиби ва курсантларнинг

уч батальони пойтахт ҳимояси учун Москва яқинига юборилди. Ҳали жанг майдонларида чиниқмаган ва эндигина қўлига қурол тутган аскарлар Москва остоналаридаги шафқатсиз урушга сафарбар этилди.

Ш.Рашидов курсдошлари билан Қизил Армия Шимолий-ғарбий фронтининг Қизил Байроқ орденли 191-Новгород ўқчилар дивизияси таркибига юборилди. У Истра дарёси атрофларидаги Волокамск йўналишида жанг қилди. 1941 йилнинг киши ниҳоятда совуқ ва изғиринли бўлган эди. Қаҳратон совуқ 40–42 даражага етган эди. Дивизия аскарлари Москва остоналаридаги фронтнинг энг қақшатқич жанглар давом этаётган Истра дарёси соҳилида душман ҳужумини бартараф эта олишди. Минглаб юртдошлари сингари Ш.Рашидов ҳам фашистларга қарши мардларча курашди. Москва остоналаридаги жангда кўрсатган қаҳрамонлиги учун Шароф Рашидов биринчи Қизил Юлдуз ордени билан тақдирланган эди (3558404-рақамли орден китобчаси, 28.08.1942).

Қўшиннинг бир қисми Старая Русса ҳудудига ташланди, қўшин таркибида ўзбекистонлик ёш жангчилар 2-гвардиячи ўқчилар корпуси 38-алоҳида ўқчилар бригадасининг таркибида жангларда иштирок этди.

Ушбу бригада аскарлари 1942 йилнинг 20 феврида келиб фашистлар билан юзма-юз келиб, уларнинг шиддатли қаршиликларига қарши курашди ҳамда Иккинчи жаҳон уруши бошланганидан кейин биринчи марта узоқ ва аёвсиз курашлар натижасида Демьянск туманида 16-немис армиясининг 7 та дивизияси қамраб олиниб, тор-мор қилинди.

Шароф Рашидовнинг қуролдош дўстлари Зубайдулла Тоғаев, Турсун Бобохонов, Александр Уберский ўз эсдаликларида ҳикоя қилишларича, Шароф Рашидов

сафида бўлган 2-батальон жангчиларига Ленинград ва Калинин вилоятлари чегарасидаги Марфино қишлоғи ва бошқа аҳоли пунктларини қўлга киритиш бўйича жанговар вазифа қўйилган. Марфино қишлоғи учун қақшатқич жанглар бўлган.

“Бир куннинг ўзидагина қонли жангда биз душманнинг 31 танки, 28 зирҳли транспортёрлари, жуда кўп машиналарини яксон қилдик, 2 самолётини уриб туширдик, – хотирлайди улар. – Бу жангда душманнинг 250 аскар ва зобити йўқ қилинди, 200 таси асирга олинди. Шу жангда кўрсатган қаҳрамонликлари учун батальоннинг 9 аскарлари орден ва медаллар билан мукофотланди. Улар қаторида яқиндагина ҳаракатдаги ҳарбий қўшинлар сафига қўшилган Шароф Рашидов шахсий мардлиги ва жасорати учун жанговар Қизил Юлдуз ордени билан тақдирланди”.

Шароф Рашидовнинг қуролдош дўстлари 1942 йил 1 августда Ленинградни (ҳозирги Санкт-Петербургни) ҳимоя қилишдаги жангларни ҳам ёдга олишган. Уларнинг айтишича, душман бу тўқнашувларда юзлаб аскарлари ва зобитларини қурбон қилиб, чекинишга мажбур бўлган. Улар ана шу жангу жадалларда Шароф Рашидовнинг қаҳрамонлигини алоҳида таъкидлашади:

– Пекна қишлоғи учун қақшатқич жанг бўлди. Ҳарбий қисмимизда ёшлар етакчиси бўлган Шароф Рашидов ҳақиқий жасорат кўрсатиб, аскарларни ўз ортидан эргаштирди, ўзи бир нечта фашистни ер тишлатди, душманни чекинишга мажбур қилди. У бу жангда оғир ярадор бўлганига қарамасдан душманни қиришни тўхтатмади.

Қуролдош дўстларнинг бу хотираларини собиқ Иттифоқ Мудофаа вазирлигининг архивида сақланаётган

расмий ҳужжатлар ҳам тасдиқлайди. Ушбу ҳужжатда қуйидагилар баён қилинган: “Пена ва Аринино қишлоқлари учун жанг пайтида рота командири ярадор бўлиб сафдан чиққанда, ротанинг сиёсий раҳбари ўртоқ Ш. Рашидов ротага командирлик қилишни ўз зиммасига олган, у шахсий қаҳрамонлик намунасини кўрсатиб, қўмондонликнинг буйруғини муваффақиятли бажариш учун жангчиларни руҳлантирган. Ўзи ротанинг биринчи сафида жанг қилиб, ярадор бўлган”.

Ана шу қаҳрамонлик Калинин фронтининг қўмондони томонидан алоҳида ҳисобга олиниб, Шароф Рашидов иккинчи жанговар Қизил Юлдуз ордени билан мукофотланган (1985945-рақамли орден китобчаси, 05.03. 1945)

Қонли уруш пайтида, қақшатқич жанглар орасида, аскарларга ҳордиқ берилганда Шароф Рашидов қўлда қалам билан шеърлар битарди. У Самарқанд Давлат университети талабаси бўлган пайтлардаёқ вилоят газетасида машқларини эълон қила бошлаган эди. Уруш йилларидаги шеърларида эса чарос кўз, ширин сўз, ҳаёт зийнати, азиз дилдораси куйланарди. Бу ҳароратли сатрлар севгили дилбари – онамиз Хурсанойга бағишланганди.

Жуда ёш пайтидаёқ етим қолган Хурсаной опаси Хайри билан қариндошлари қарамоғида уй ишларига қарашарди. Бироз улғайгач, улар жамоа хўжалигида ишлай бошлашди, шу билан бирга ишчи ёшлар мактабида ўқишди. Ана шу мактабда Шароф Рашидов ўқитувчилик қиларди. Покиза, оқила, камтар, билимга чанқоқ Хурсаной ёш муаллим қалбидан ўрин олди. У кўнгилли бўлиб фронтга йўл олар экан, урушдан омон-эсон келса, албатта Хурсаной билан оила қуришга ваъда берган эди.

Урушнинг энг даҳшатли онларида ҳам бу пок ва муқаддас туйғу аскар йигитга куч-қувват, умид ва ишонч ато этарди, шеър сатрларида жарангларди:

Гар қуёшга айласам сафар,  
Севги билан топарман зафар.  
Гар ажалга бошласам исён,  
Севги билан енгишим аён.  
Севги билан кўзларим олов,  
Мардлигимдан қалтирайди ёв.

Шароф Рашидов фронтдан оғир ярадор бўлиб қайтганида, жуда заиф, озиб кетган, ҳолсиз аҳволда эди. Хурсаной уни оёққа турғизиш учун ўша ўта оч-наҳорлик ҳукм сураётган шароитларда жонини жабборга берди. Шароф Рашидовичнинг ўзи кўп марта Хурсаной бўлмаганида тирик қолиши амри маҳол эканлигини такрорлаган.

Биз Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Шароф Рашидов билан Хурсанойнинг севгиси ва садоқати ҳақидаги қуйидаги ниҳоятда таъсирчан сўзларидан бир умр чексиз миннатдормиз:

“Шароф Рашидовнинг “Икки дил достони” деган гўзал асарини ҳаммамиз севиб ўқиганмиз. Менинг назаримда, чинакам севги ва садоқат достони бўлмиш бу асарда Шароф ака ва у кишининг меҳрибон рафиқаси, оқила ва мунис ўзбек аёли Хурсаной опанинг ибратли ҳаёти ва тақдири мужассам бўлгандек туюлади.

Ҳақиқатан ҳам, бу матонатли аёл умр бўйи Шароф Рашидов билан ҳамнафас бўлиб, ҳаётнинг барча синовларига бардош бериб, энг оғир дамларда ҳам умр

йўлдошига содиқ бўлиб яшади. Бундай бебаҳо фази-латлари билан бу муштипар опамиз халқимиз ўрта-сида чинакам вафо ва садоқат тимсолига айланди.

Шу ўринда яна бир масалага алоҳида тўхталиб ўтиш-ни ўринли, деб биламан: Шароф ака ва Хурсаной опанинг берган таълим ва тарбияси, шахсий на-мунаси туфайли уларнинг оиласи, фарзандлари ўз ота-оналарига муносиб бўлиб, эл-юртга фидойилиги билан бу қутлуғ хонадон номини доимо пок сақлаб келмоқда. Бундай хислатлар кўп миллатли халқимиз, юртимиздаги барча оилалар учун ҳар томонлама ўр-нак ва ибратга лойиқ бўлган маънавий ҳодисадир”.

Шароф Рашидов юртида қолган севгилисига бахшида қилган шеърлар ҳам ўрин олган унинг ягона шеърлар тўплами – “Менинг қаҳрим” 1945 йилда нашр этилган бўлиб, бу тўпламда фронт йиллари шеърлари ўрин олган. У, агар “Кашмир қўшиғи” ҳисобга олинмаса, шундан сўнг деярли бошқа шеърларини эълон қил-маган.

Шароф Рашидовнинг 50 та шеъри унинг беш жилд-лик асарлар тўпламига киритилган. Уларнинг айрим-лари қўшиқ қилиб куйланган.

Шароф Рашидовнинг шеърлари рус тилига таржима қилиниб, тўплам сифатида нашр қилинмаган. Фақат Иттифоқ Педагогика фанлар академиясининг мухбир аъзоси, филология фанлари доктори Мурат Ҳамроев томонидан Шароф Рашидовнинг рус тилига таржи-ма қилинган шеърлари муаллифнинг усулига анча яқиндир. Мурат Ҳамроев бу шеърларни ўзи учун таржима қилганлигини айтарди. Афсуски, бу инсон ҳаётдан эрта кўз юмди. Улардан бирини эътиборин-гизга ҳам ўзбек, ҳам рус тилида тақдим этишни лозим топдик:

Эрта тонгда уфқдан боқар,  
Сочин тараб нурафшон қуёш.  
Унга суқ-ла термилар башар,  
Чунки қуёш биз билан тенгдош.

Бизга жилва қилгандай юлдуз,  
Нозланадир бахтим тонгида.  
Посбонимиз кечаю кундуз,  
Ишқи янграр қалб оҳангида.

Саодатим нурдай товланур,  
Бизга боққан завқ ила Ватан,  
Унга меним муҳаббатим зўр,  
Фидо бўлсин унга жону тан.

\* \* \*

Выходит солнце из-за синих гор,  
Лучи его – нечесанные косы.  
Ласкает землю долгожданный взор,  
Сверкают травы, звонко блещут росы.

Могучая и яркая звезда,  
Ты на заре мне улыбнулась снова,  
Вот так же, как и ты, душа всегда  
Горит к Отчизне вдохновенным словом.

Как твой негаснущий всесильный луч,  
В душе моей горит любовь к Отчизне,  
Я для нее достану ключ,  
Я для нее не пожалею жизни.

Шароф Рашидовичнинг бағоят мураккаб, масъулиятли, катта куч-ғайрат талаб этган ҳаёт йўлларида Хурсаной Ғафуровна ҳамиша садоқатли дўст ва маслак-

дош бўлганлар. Улар биргаликда ҳамиша ҳам текис бўлмаган ҳаёт йўлларини муносиб тарзда босиб ўтишди.

Хурсаной Ғафуровна ниҳоятда доно, чуқур мулоҳазали аёл бўлиб, Шароф Рашидовичнинг ҳаёт йўлларида ҳамиша уни қўллаб-қувватлар, ишонган суюнчиғи эди. Хурсаной Ғафуровна турмушнинг барча юкини ўзига олиб, фарзандлар тарбияси билан шуғулланиб, Шароф Рашидовичнинг сиёсий, адабий фаолиятининг унумли ва муваффақиятли бўлишини таъминлаган муҳитни ярата олган эди.

Шароф Рашидович ва Хурсаной Ғафуровна биргаликда 40 йил умр кечиришди ва хотирамизда вафодор, руҳан ҳамоҳанг инсонлар сифатида муҳрланиб қолдилар. Олийжаноблик, садоқат ва ўзаро ишонч улар учун ҳаётий мезон эди...

2020 йилда Шароф Рашидовнинг доно, зукко, вафодор ва матонатли рафиқаси – Хурсаной Ғафуровна таваллуд топганининг юз йиллигидир. Ана шу муборокак сана арафасида китобхонлар эътиборига Шароф Рашидовнинг жанггоҳлардан туриб ўз суюкли ёрига “Севги билан ғолибман ҳар он!” хитоби, қалб тўридан отилган фронт йилларидаги шеърлар тўплами ҳавола этилмоқда.

*Тузувчилардан.*

*Шароф Рашидов  
номидаги халқаро  
жамоат Фонди.*

# «Sevgi bilan g'olibman har on!»

Insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz va qonli urush – Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk G'alabaning 75 yilligi nishonlanadigan 2020-yil – qaqshatqich janglarda yaqinlari va qadrdon insonlarini yo'qotgan sayyoramizdagi millionlab oilalar uchun muhim sana hisoblanadi. Shubhasiz, urushda qarindoshlari fojiali vafot etgan har bir oilaning o'z iztirobi, omon qaytganlarning esa baxtli taqdiri bilan bog'liq porloq xotiralari bor.

1941-yilning iyunida Samarqand Davlat universitetining bitiruvchi-talabalari diplom ishi himoyasini tugatish arafasida Ulug' Vatan urushi boshlandi. Butun mamlakat fashistlarga qarshi jangga, Vatan himoyasiga otlandi. 1941-yilning avgust oyidayoq, o'nlab universitet o'qituvchilari va yuzlab talabalar armiyaga jo'nab ketdilar.

Sh. Rashidov ham bir guruh talabalar bilan birga ko'ngillilar qatorida Qizil Armiya safiga qo'shildi va Qirg'iziston Respublikasi poytaxti – Frunze (hozirgi Bishkek) shahridagi piyoda askarlar bilim yurtiga yuborildi. Bilim yurtidagi o'qish davri 4 oy bo'lishiga qaramay, frontdagi, ayniqsa, Moskva ostonalaridagi og'ir vaziyat tufayli oktabr oyidayoq barcha serjantlik tarkibi va kursantlarning uchta bataloni poytaxt himoyasi uchun

Moskva yaqiniga yuborildi. Hali jang maydonlarida chiniqmagan va endigina qo'liga qurol tutgan askarlar Moskva ostonalaridagi shafqatsiz urushga safarbar etildi.

Sh. Rashidov kursdoshlari bilan Qizil Armiya Shimoliy-g'arbiy frontining Qizil Bayroq ordenli 191-Novgorod o'qchilar diviziyasi tarkibiga yuborildi. U Istra daryosi atroflaridagi Volokamsk yo'nalishida jang qildi. 1941-yilning qishi nihoyatda sovuq va izg'irinli bo'lib, qahraton sovuq 40–42 darajaga yetgan edi. Diviziya askarlari Moskva ostonalaridagi frontning eng qaqshatqich janglar davom etayotgan Istra daryosi sohilida dushman hujumini bartaraf eta olishdi. Minglab yurtdoshlari singari Sh. Rashidov ham fashistlarga qarshi mardlarcha kurashdi. Moskva ostonalaridagi jangda ko'rsatgan qahramonligi uchun Sharof Rashidov birinchi Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlangan edi (3558404-raqamli orden kitobchasi, 28.08.1942).

Qo'shinning bir qismi Staraya Russa hududiga tashlandi, qo'shin tarkibida o'zbekistonlik yosh jangchilar 2-gvardiyachi o'qchilar korpusi 38-alohida o'qchilar brigadasining tarkibida janglarda ishtirok etdi.

Ushbu brigada askarlari 1942-yilning 20-fevralida fashistlar bilan yuzma-yuz kelib, ularning shiddatli qarshiliklariga qarshi kurashdi hamda Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin birinchi marta uzoq va ayovsiz kurashlar natijasida Demyansk tumanida 16-nemis armiyasining 7 ta diviziyasi qurshovga olinib, tor-mor qilindi.

Sharof Rashidovning quroldosh do'stlari Zubaydulla Tog'ayev, Tursun Boboxonov, Aleksandr Uberskiy o'z esdaliklarida hikoya qilishlaricha, Sharof Rashidov safida bo'lgan 2-batalon jangchilariga Leningrad va Kalinin

viloyatlari chegarasidagi Marfino qishlog'i va boshqa aholi punktlarini qo'lga kiritish bo'yicha jangovar vazifa qo'yilgan. Marfino qishlog'i uchun qaqshatqich janrlar bo'lgan.

"Bir kunning o'zida qonli jangda biz dushmanning 31 tanki, 28 zirhli transportyori, juda ko'p mashinalarini yakson qildik, 2 ta samolyotini urib tushirdik, – xotirlaydi ular. – Bu jangda dushmanning 250 askar va zobiti yo'q qilindi, 200 nafari asirga olindi. Shu jangda ko'rsatgan qahramonliklari uchun batalonning 9 nafar askari orden va medallar bilan mukofotlandi. Ular qatorida yaqindagina harakatdagi harbiy qo'shinlar safiga qo'shilgan Sharof Rashidov shaxsiy mardligi va jasorati uchun jangovar Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlandi".

Sharof Rashidovning quroldosh do'stlari 1942-yil 1-avgustda Leningradni (hozirgi Sankt-Peterburgni) himoya qilishdagi janglarni ham yodga olishgan. Ularning aytishicha, dushman bu to'qnashuvlarda yuzlab askarlari va zobitlarini qurbon qilib, chekinishga majbur bo'lgan. Ular ana shu jang-u jadallarda Sharof Rashidovning qahramonligini alohida ta'kidlashadi:

– Pekna qishlog'i uchun qaqshatqich jang bo'ldi. Harbiy qismimizda yoshlar yetakchisi bo'lgan Sharof Rashidov haqiqiy jasorat ko'rsatib, askarlarni o'z ortidan ergashtirdi, o'zi bir nechta fashistni yer tishlatdi, dushmanni chekinishga majbur qildi. U bu jangda og'ir yarador bo'lganiga qaramasdan dushmanni qirishni to'xtatmadi.

Quroldosh do'stlarning bu xotiralarini sobiq Ittifoq Mudofaa vazirligining arxivida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar ham tasdiqlaydi. Ushbu hujjatda quyidagilar bayon qilingan: "Pena va Arinino qishloqlari uchun jang

paytida rota komandiri yarador bo'lib safdan chiqqanda, rotaning siyosiy rahbari o'rtoq Sh. Rashidov rotaga komandirlik qilishni o'z zimmasiga olgan, u shaxsiy qahramonlik namunasini ko'rsatib, qo'mondonlikning buyrug'ini muvaffaqiyatli bajarish uchun jangchilarni ruhlantirgan. O'zi rotaning birinchi safida jang qilib, yarador bo'lgan".

Ana shu qahramonlik Kalinin frontining qo'mondoni tomonidan alohida hisobga olinib, Sharof Rashidov ikkinchi jangovar Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlangan. (1985945-raqamli orden kitobchasi, 05.03. 1945.)

Qonli urush paytida, qaqshatqich janglar orasida, askarlarga hordiq berilganda Sharof Rashidov qo'lda qalam bilan she'rlar bitardi. U Samarqand Davlat universiteti talabasi bo'lgan paytlardayoq viloyat gazetasida mashqlarini e'lon qila boshlagan edi. Urush yillaridagi she'rlarida esa charos ko'z, shirin so'z, hayot ziynati, aziz dildorasi kuylanardi. Bu haroratli satrlar sevgili dilbari – onamiz Xursanoyga bag'ishlangandi.

Juda yosh paytidayoq yetim qolgan Xursanoy opasi Xayri bilan qarindoshlari qaramog'ida uy ishlariga qarashardi. Biroz ulg'aygach, ular jamoa xo'jaligida ishlay boshlashdi, shu bilan birga ishchi yoshlar maktabida o'qishdi. Ana shu maktabda Sharof Rashidov o'qituvchilik qilardi. Pokiza, oqila, kamtar, bilimga chanqoq Xursanoy yosh muallim qalbidan o'rin oldi. U ko'ngilli bo'lib frontga yo'l olar ekan, urushdan omon-eson kelsa, albatta Xursanoy bilan oila qurishga va'da bergan edi.

Urushning eng dahshatli onlarida ham bu pok va muqaddas tuyg'u askar yigitga kuch-quvvat, umid va ishonch ato etardi, she'r satrlarida jaranqlardi:

Gar quyoshga aylasam safar,  
Sevgi bilan toparman zafar.  
Gar ajalga boshlasam isyon,  
Sevgi bilan yengishim ayon.  
Sevgi bilan ko'zlarim olov,  
Mardligimdan qaltiraydi yov.

Sharof Rashidov frontdan og'ir yarador bo'lib qaytganda, juda zaif, ozib ketgan, holsiz ahvolda edi. Xursanoy uni oyoqqa turg'izish uchun o'sha o'ta och-nahorlik hukm surayotgan sharoitlarda jonini jabborga berdi. Sharof Rashidovichning o'zi ko'p marta Xursanoy bo'lmaganida tirik qolishi amri mahol ekanligini takrorlagan.

Biz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Sharof Rashidov bilan Xursanoyning sevgisi va sadoqati haqidagi quyidagi nihoyatda ta'sirchan so'zlaridan bir umr cheksiz minnatdormiz:

“Sharof Rashidovning “Ikki dil dostoni” degan go'zal asarini hammamiz sevib o'qiganmiz. Mening nazarimda, chinakam sevgi va sadoqat dostoni bo'lmish bu asarda Sharof aka va u kishining mehribon rafiqasi, oqila va munis o'zbek ayoli Xursanoy opaning ibratli hayoti va taqdiri mujassam bo'lgandek tuyuladi.

Haqiqatan ham, bu matonatli ayol umr bo'yi Sharof Rashidov bilan hamnafas bo'lib, hayotning barcha sinovlariga bardosh berib, eng og'ir damlarda ham umr yo'ldoshiga sodiq bo'lib yashadi. Bunday bebaho fazilatlari bilan bu mushtipar opamiz xalqimiz o'rtasida chinakam vafo va sadoqat timsoliga aylandi.

Shu o'rinda yana bir masalaga alohida to'xtalib o'tishni o'rinli, deb bilaman: Sharof aka va Xursanoy opaning

bergan ta'lim va tarbiyasi, shaxsiy namunasi tufayli ularning oilasi, farzandlari o'z ota-onalariga munosib bo'lib, el-yurtga fidoyiligi bilan bu qutlug' xonadon nomini doimo pok saqlab kelmoqda. Bunday xislatlar ko'p millatli xalqimiz, yurtimizdagi barcha oilalar uchun har tomonlama o'rnak va ibratga loyiq bo'lgan ma'naviy hodisadir".

Sharof Rashidov front yillari yurtida qolgan sevgilisiga baxshida qilgan she'rlar ham o'rin olgan yagona she'rlar to'plami – "Mening qahrim" 1945-yilda nashr etilgan. Uning "Kashmir qo'shig'i" hisobga olinmaganda, shundan so'ng deyarli boshqa she'rlari e'lon qilinmagan.

Sharof Rashidovning 50 ta she'ri uning besh jildlik asarlar to'plamiga kiritilgan. Ularning ayrimlari qo'shiq qilib kuylangan.

Sharof Rashidovning she'rlari rus tiliga tarjima qilinib, to'plam sifatida nashr qilinmagan. Faqat sobiq Ittifoq Pedagogika fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, filologiya fanlari doktori Murat Hamroyev tomonidan Sharof Rashidovning rus tiliga tarjima qilingan she'rlari muallifning usuliga ancha yaqindir. Murat Hamroyev bu she'rlarni o'zi uchun tarjima qilganligini aytardi. Afsuski, bu inson hayotdan erta ko'z yumdi. Ulardan birini e'tiboringizga ham o'zbek, ham rus tilida taqdim etishni lozim topdik:

Erta tongda ufqdan boqar,  
Sochin tarab nurafshon quyosh.  
Unga suq-la termilar bashar,  
Chunki quyosh biz bilan tengdosh.

Bizga jilva qilganday yulduz,  
Nozlanadir baxtim tongida.

Posbonimiz kecha-yu kunduz,  
Ishqi yangrar qalb ohangida.

Saodatim nurday tovlanur,  
Bizga boqqan zavq ila Vatan,  
Unga menim muhabbatim zo'r,  
Fido bo'lsin unga jon-u tan.

\* \* \*

Выходит солнце из-за синих гор,  
Лучи его – нечесанные косы.  
Ласкает землю долгожданный взор,  
Сверкают травы, звонко блещут росы.

Могучая и яркая звезда,  
Ты на заре мне улыгнулась снова,  
Вот так же, как и ты, душа всегда  
Горит к Отчизне вдохновенным словом.

Как твой негаснущий всеильный луч,  
В душе моей горит любовь к Отчизне,  
Я для нее достану ключ,  
Я для нее не пожалею жизни.

Sharof Rashidovichning bag'oyat murakkab, mas'uliyatli, katta kuch-g'ayrat talab qilgan hayot yo'llarida Xursanoy G'afurovna hamisha sadoqatli do'st va maslakdosh bo'lganlar. Ular birgalikda hamisha ham tekis bo'lmagan hayot yo'llarini munosib tarzda bosib o'tishdi.

Xursanoy G'afurovna nihoyatda dono, chuqur mulohazali ayol bo'lib, Sharof Rashidovichning hayot yo'llarida hamisha uni qo'llab-quvvatlar, ishongan suyanchig'i edi. Xursanoy G'afurovna turmushning barcha yukini


o'ziga olib, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanib, Sharof Rashidovichning siyosiy, adabiy faoliyatining unumli va muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlagan muhitni yarata olgan edi.

Sharof Rashidovich va Xursanoy G'afurovna birgalikda 40 yil umr kechirishdi va xotiramizda vafodor, ruhan hamohang insonlar sifatida muhrlanib qoldilar. Oliyjanoblik, sadoqat va o'zaro ishonch ular uchun hayotiy mezon edi...

2020-yilda Sharof Rashidovning dono, zukko, vafodor va matonatli rafiqasi – Xursanoy G'afurovna tavallud topganining yuz yilligidir. Ana shu muborak sana arafasida kitobxonlar e'tiboriga Sharof Rashidovning jangohlardan turib o'z suyukli yoriga "Sevgi bilan g'olibman har on!" xitobi, qalb to'ridan otilgan front yillaridagi she'rlar to'plami havola etilmoqda.

*Tuzuvchilardan.*

*Sharof Rashidov nomidagi xalqaro  
jamoat Fondi.*



*Кичик взвод командири Ш. Рашидов 1941 йил фронтга жўнаши олдидан отаси Рашид Халилов билан.*

*Kichik vzvod komandiri Sh. Rashidov 1941-yil frontga jo'nashi oldidan otasi Rashid Xalilov bilan.*



*Шароф Рашидов 1943 йилда ҳалок бўлган Самарқанд  
Давлат университети ректори Азиз Валиев билан.*

*Sharof Rashidov 1943-yilda halok bo'lgan Samarqand  
Davlat universiteti rektori Aziz Valiyev bilan.*



*Шароф Рашидов ва Хурсаной Абдуғаффорова  
тўй куннда. 1942 йил, август.*

*Sharof Rashidov va Xursanoy Abdug'afforova  
to'y kunida. 1942-yil, avgust.*



*Хурсаной Рашидова. 1943 йил, октябрь.*

*Hursanoy Rashidova. 1943-yil, oktabr.*



*Sh.R. Rashidov – Samarqand oblast partiya qo'mitasi  
kotibi. 1945-yil.*

Наградные материалы

Фонд-33, опись-682524, дело-205, лист-63

Рашидов Шараф

1917 года рождения, ответ. секретарь комсомольской организации 3-отдельного стрелкового батальона 38-отдельной стрелковой бригады 2-гвардейского стрелкового корпуса.

Младший политрук, узбек, член ВКП(б), в рядах Красной Армии - с 1941 года.

В боях за в. Пекин и Арвинне отличился, когда выбыл из строя командир и политрук роты тов. Рашидов принял командование ротой на себя, личным примером героизма воодушевляя бойцов на успешное выполнение задания командования, в бою находился впереди своей роты и был ранен.

Из приказа командующего Калининским  
Фронтом за № 306/н от 28 августа 1942  
года о награждении Рашидова Ш. орденом  
Красной Звезды.

*с.у.т.м.*  
Исследователь Маджид Самадов, член Союза писателей, заслуженный журналист Узбекистана, ветеран Великой Отечественной войны, проживавший в г. Покенте Ташкентской области.

*Мудофаа вазирлиги архивидан кўчирма.*

*Mudofaa vazirligi arxividan ko'chirma.*



*Шароф Рашидов ва Хурсаной Рашидова сайрда. 1959 йил.*  
*Sharof Rashidov va Xursanoy Rashidova sayrda. 1959-yil.*



*Хурсаной Гафуровна ва Шароф Рашидовнинг бирга тушган охириги фотосуратлари. 1982 йил.*

*Xursanoy G'afurovna va Sharof Rashidovning birga tushgan oxirgi fotosuratleri. 1982-yil.*





SamDuning sobiq  
bitiruvchilari –  
polkdoshlar,  
Ikkinchi  
jahon urushi qatna-  
shchilari.  
Chapdan: Z. Toʻraev,  
I. Safronov,  
R. Gulyanç,  
Sh. Rashidov,  
I. Rijik,  
M. Maḥmudov,  
V. Nikazachenko.  
1975 йил, 9 май.

SamDuning sobiq  
bitiruvchilari –  
polkdoshlar,  
Ikkinchi jahon urushi  
qatnashchilari.  
Chapdan: Z. Togʻayev,  
I. Safronov,  
R. Gulyans,  
Sh. Rashidov,  
I. Rijik, M. Mahmudov,  
V. Nikazachenko.  
1975-yil, 9-may.



## ВАТАН ИШҚИ

Эрта тонгда уфқдан боқар,  
Сочин тараб нурафшон қуёш.  
Унга суқ-ла термилар башар,  
Чунки қуёш биз билан тенгдош.

Бизга жилва қилгандай юлдуз,  
Нозланадир бахтим тонгида.  
Посбонимиз кечаю кундуз,  
Ишқи янграр қалб оҳангида.

Саодатим нурдай товланур,  
Бизга боққан завқ ила Ватан.  
Унга менинг муҳаббатим зўр,  
Фидо бўлсин унга жону тан.

Олов ёшлик урадир жавлон  
Кенг фазони қамал қилишга.  
Ватан ишқи ундар бегумон,  
Лочинлардай учқур бўлишга.

Мана шундай бу бизнинг ҳаёт,  
Кундан-кунга олға кетажак.  
Илҳомимга бериб зўр қанот,  
Мамлакатим гуллар тутажак!

*Жиззах,  
1937 йил*

## МЕҲНАТИМ

Сен дедим бўлди ҳаёт бол, сен ҳузурим, меҳнатим,  
Сен билан яшнайти иқбол, сен сурурим, меҳнатим.  
Дилга ишқ, тилга қўшиқ бўлган ғурурим, меҳнатим,  
Ҳам ғурурим, ҳам сурурим, ҳам ҳузурим, меҳнатим!

Ой этиб кўз-кўз қилурман, меҳнатимнинг завқини,  
Пок муҳаббат чашмаси, шон меҳнатимнинг шавқини.  
Бир умр ўчмас, тугалмас дилларимнинг ёлқини,  
Ҳам ғурурим, ҳам сурурим, ҳам ҳузурим, меҳнатим!

Сен гўзалсан, сен асалсан, аҳду паймоним сенга,  
Чўл, биёбон гулга тўлсин, орзу-армоним сенга,  
Қонга ботсин, ёв қирилсин, дилда фармоним сенга,  
Ҳам ғурурим, ҳам сурурим, ҳам ҳузурим, меҳнатим!

Сен билан очдим кўзимни, сен билан бўлдим азиз,  
Сен билан кулди диёрим, сен билан турмуш лазиз.  
Сен билан олам ёруғ, сен бердинг менга нону туз,  
Ҳам ғурурим, ҳам сурурим, ҳам ҳузурим, меҳнатим!

*1938 йил*

## ГУЛ ДИЁРИМ БОР

Қуёшни ўзга жазм этган  
Боғим бор, гул диёрим бор.  
Диёрим ишқидан куйлар  
Куйим бор, бастакорим бор.

Қуёшдай сочиб ёғду  
Куларман, меҳрибоним бор.  
Кулиб боққан тўлин ойдек  
Тўларман, жонажоним бор.

Дилимга ишқи жо ҳар дам,  
Ҳур ўлкам – гул Ватаним бор.  
Бу чаманда бахтиёрман,  
Боғим бор – шўх чаманим бор...

*Самарқанд,  
1938 йил, 12 июнь*

## ЭРК ИСТАР КҰНГИЛ

(Н.Г. Чернишевскийга)

Русия тунидек қоронғи қафас.  
Унда пайхон умр, бўлмас хур нафас.  
Қафасда ётарди эрк истар кўнгил,  
Минг алам ўтида ёнар эди дил.  
Қон тўлиб, тўлғониб оқади Нева,  
Дард билан чулғаниб боқади Нева:  
Тўлқини аламли худди шу дилдай,  
Инграйди, қақшаган ғариб бир элдай,  
Дил тинглар қафасда Нева созини,  
Эшитар йўқсилнинг мунг овозини.  
Эшитар Русия қишлоқларидан,  
Волгаю Енисей қирғоқларидан  
Йўқсил эл додини, оҳ-фиғонини,  
Ғам ичра ўртанган эл армонини.  
Эшитар турмада, завод, шаҳардан,  
Қора тунда қақшаб, туриб саҳардан  
Ишчининг эрк истаб айтган зорини,  
Юрагини эзган ғам озорини.  
Дил тўлқин уради, нафратлар қат-қат,  
Заррача сўрамай тақдирдан шафқат.

\* \* \*

Русия қоронғи ғам гўшасида,  
Хуррият истадинг, эй ватангадо.  
Хуррият истадинг, тушдинг қувғинга,  
Бир умр ғам билан орзулар адо.  
Оташин қалбингда олийжаноб ишқ –  
Хуррият орзуси ёнди бир умр.  
Ниятинг етаклаб бошлади олға,  
Сен ундан қайтмадинг, кўзда борки нур

Разиллар шоҳига миллион юракнинг  
Нафратин, ғазабин дадил сўйладинг.  
Зиндон макон бўлди сенга куну тун,  
Эркислар-чун ёруғликни ўйладинг.

\* \* \*

Прометей тангрини зор қақшатиб,  
Оловини эркис элга келтирди.  
Олов билан туққан она юртига,  
Ўз халқига ёруғлик қасрин қурди.  
«Чўққидаги Прометей» сен бўлиб,  
Бахт изладинг, эл бўлсин деб шод.  
Кун ўтар, ой ўтар ва ўтар йиллар,  
Бахтиёр халқ доим сени этар ёд.

*Самарқанд,  
1939 йил, октябрь.*

## ВАТАН ҚАСИДАСИ

I

Ҳаётнинг бир куни асрларга тенг,  
Мазмуни улуғвор бахтимиздек кенг.  
Яшамоқ – саодат, ўлмоқ пушаймон,  
Орзулар барг ёзар, йўқ дилда армон.  
Кўнгиллар шод эрур умр тўйида,  
Бир умр тўй эрур бахтнинг уйида.  
Бахт демак – яшамоқ, ўйнамоқ демак,  
Бахт демак – куйламоқ, ҳам кулмоқ демак.  
Бахт гули очилган, қулф урган хандон,  
Бу гулнинг бошида она юрт посбон.  
Яшаш – бахт-саодат шундай Ватанда,  
Меҳри ҳам, ишқи ҳам қайнар шу танда.  
Бахтиёр кунларим, фаровон ҳаёт,  
Ватанимнинг ўзи қўйди менга от.  
Нури-ла улғайдим, кўзимни очдим,  
Кўзидан кўзимга нур олдим, сочдим.  
Юрагим ураркан Ватан ишқида,  
Мен шодман яшагум олтин кўшқида.  
Дунё-дунё орзулар менга ёр бўлди,  
Дунё-дунё севинчга дилларим тўлди.  
Бахтиёр кунларда улғайдим, ўсдим,  
Бошимни силади шу Ватан, дўстим.  
У билан диллар шод, кўнгил чин кушод,  
Қайноқ меҳри яшар дилда умрбод.  
У билан яйрайди ғамсиз дилларим.  
У билан сайрайди эркин тилларим.  
У билан мен борман ёруғ замонда,  
У билан ўсаман мен шу жаҳонда.  
Унинг ишқи дилларимни банд этган,

Унинг ишқи элларимни банд этган,  
Унинг номи курашларда эрк – ялов.  
Унинг номи ёвга бўлгай ўт-олов.  
Ватан ишқи билан урар юрагим,  
Ватан ишқи билан улуғ тилагим.  
Кўнглим шод, бахт-саодат йўлдошим,  
Сен билан кўкларга етди – бу бошим.  
Майли, буюр, постингда мен турайин,  
Ёв кўксига кўндоқ билан урайин.  
Чегарада турмоқ менинг армоним,  
Дилимдаги улуғ тилак, фармоним.  
Майли, буюр, онамнинг ҳурмати-чун,  
Майли, буюр, ўғлингнинг шуҳрати-чун!

## II

Чўпонларнинг найига сен жўровоз,  
Жуманбулбул куйига сен сарафроз.  
Шаънинг учун куйлайдилар беармон,  
Суҳбатларда сўйлайдилар беармон.  
Меҳнаткашлар ялласида сен дoston,  
Дoston билан тўлган бу кун бир бўстон.  
Меҳринг билан ҳамма яшар, завқ олар,  
Дилга севинч, ишга мадад, шавқ олар.  
Сен, эй Ватан, бағринг букун гулистон,  
Оналарнинг алласида сен дoston.  
Номинг билан аллалайди боласин,  
Алла билан юпатар кўз қорасин.  
Номинг билан кўз очади чақалоқ,  
Сен бўлурсан унинг кўзига чироқ.  
Ишқинг билан бўйи ўса, улғаяр,  
Ёш дилида сенга меҳр уйғонар.

Сени дея мушкул ишда ул мағрур,  
Сени дея кўзларида балқир нур.  
Номинг билан улғайиб, у тилга кирар,  
Номинг билан улғайиб, у элга кирар.  
Чақалоқнинг тўнғич сўзи – Ватандир,  
Онасининг кўрар кўзи – Ватандир!

### III

Эй, инсон кўзига нур сочар қуёш,  
Омон бўл, кўзлардан сира оқмас ёш.  
Сен демак – яшамоқ, яшнамоқ демак,  
Сен демак – зафарга бошламоқ демак.  
Кўз очган инсоннинг тилагидир шул:  
Э, Ватан! Омон бўл, мангу омон бўл!

*Самарқанд,  
1939 йил, сентябрь*

## СУВ ВА НУР<sup>1</sup>

*Достон*

I

Меҳнат қўшди умримизга бол,  
Меҳнат билан гул очар иқбол.  
Меҳнат – шараф, меҳнат – шон экан,  
Меҳнат борки, нурли истиқбол.

Меҳнат берди ижод, илҳом, куй,  
Меҳнат берди дабдабали тўй.  
Самараси ҳар кун байрамдир,  
Меҳнат берди янги фикр – ўй.

Меҳнат кўки чунон серюлдуз,  
Меҳнат фасли баҳори кундуз.  
Орзумиз йиллар меҳнат эди,  
Унга қўйдик бегард ишқи-рўз.

Элга ҳусн, юзимизга шон,  
Қалбга севги, кучимизга шон.  
Шу бергандир, шунда меҳримиз,  
Шундан топдик беҳад ризқу нон.

Меҳнат борки, кулар тилаклар,  
Меҳнат борки, вулқон юраклар.  
Меҳнат завқи-шавқи шириндир,  
Қувват олар белу билаклар.

Кўкрагимиз ғайрат булоғи,  
Сувлар оқар, гуллар эл боғи.  
Тўлқинида сузайлик беармон,  
Бахт – инсоннинг меҳнат қилмоғи.

---

<sup>1</sup> Асқад Мухтор билан ҳамкорликда ёзилган. (Муаллиф.)

Меҳнат бўлса ҳаёт – ҳаётдир,  
Меҳнат сенга темир қанотдир.  
Меҳнат билан кўкка учайлик,  
Томошабин бор коинотдир.

Ватан кўрсин минг ҳузур билан,  
Қуёш кўрсин олам нур билан.  
Дунё-дунё қудрат байроқ бўлди,  
Кўз-кўз қилдик минг ғурур билан.

Янги замон кўрки – меҳнатдир,  
Янги олам эрки – меҳнатдир.  
Халқимизнинг севган, таянгани  
Ва муқаддас мулки – меҳнатдир.

II

Ёшлиқни-да ўзинг бергансан,  
Дилга чиқмас бўлиб киргансан.  
Шараф сенга! Бутун умримизни  
Гул ёшликка айлантиргансан.

Биз асорат кўрмай улғайдик,  
Элга ёшлиқ довруғини ёйдик.  
Ёшлигимиз очган ғунчаларнинг,  
Ҳар биттаси бир тўлин ойдек.

Не наслар қон-ёш тўқдилар,  
Не асрлар изсиз чўқдилар.  
Улар ёшлиқ кўролмайн азал,  
Қонли ўкинч тортиб ўтдилар.

...Қум тоғидан, Вобкент ёғидан  
Нуротанинг тош қишлоғидан,  
Кела бердик, чўллар нотинч бўлди,  
Нор туянинг қўнғироғидан.

Карвон юрди, ҳафталар юрди,  
Тоғу, тошу чўл босиб юрди.  
Тўзон тутди Шаҳрисабз чўлин,  
Йўлда ёвуз қум-бўрон турди.

Кела бердик, ҳар ёндан келдик,  
Шофиркондан, Жиззахдан келдик.  
Азобларни енгиб, тошларни янчиб,  
Довон ошиб, узоқдан келдик.

Кела бердик, онт ичиб келдик,  
Сув учун деб қум кечиб келдик.  
Боғчалардан, зумрад далалардан  
Шафқат қучиб, боз учиб келдик.

Нечук ғорат барпо бу қадар?  
Тўлқинлари дарё бу қадар?  
Нега, қайдам, мардона бардош?  
Нега нотинч саҳро бу қадар?

Тингла, Ватан, жавоб берайлик,  
Маржон-маржон сўзлар терайлик.  
Чўпон йигит фожиасин тингла,  
Тингла, элдан байт келтирайлик.

Ҳаёт машъум ҳис туйдиради,  
Қун бир ёнғин, қун куйдиради.  
Мудҳиш соя солиб осмонда,  
Тутун каби ажал юради.

Сув! Заъфарон япроқ интизор,  
Қовжираган тупроқ интизор.  
На гул яйрар, на бир булбул сайрар,  
Боғу чорбоғ қақроқ, интизор.

Қани энди шаббода елса,  
Қани кўкка бир булут келса.  
Булут келса гавҳар донлари,  
Экинзорга гувлаб тўкилса.

Эл осмонни кузатар маҳтал,  
Ёлвориб қўл узатар маҳтал.  
Беҳуда роз фалак тинглармиди?  
Кўп асрлар этган орзу-ҳол?

Сароб юрар куз телбанамо,  
Қатра вафо қилмайди само.  
Энтикади, томчи сув дейди юрт,  
Дейди бир дам нафас олсам-о!..

### III

Зар ташувчи Зарафшон – чироқ,  
Қону жондан сув афзаллироқ.  
Туя тортар кетмоқда фуқаро,  
Хайр десинми ёки алфироқ?

Хайр десинми ёки алфироқ –  
Аён: Арслон тақдири, бироқ –  
Не мавж? Фармони! Бош тортган элда  
Зеру забар осмони тупроқ...

Амир итдай қутурган дерлар,  
Юртга офат келтирган дерлар.  
Фуқарони баттар эзмоқ учун,  
Сув йўлига ғов қурган дерлар.

Тўғон ошиб сув тошар эмиш,  
Товуши кўкка чирмашар эмиш.  
Сувнинг ваҳший телбалигида  
Минг дард билан ул яшар эмиш.

Сув тошибдир, ғов бузилибдир.  
Амир кўзи қонга тўлибдир.  
Ўзи сув йўлин бекитмоқ учун  
Элнинг ўзин қувмоқ бўлибдир.

Фақирлар кўз ёшлаб кетдилар,  
Ёр-қўрларин бошлаб кетдилар.  
Ўзларига қабр кавлаш учун  
Беклар молин ташлаб кетдилар.

Не-не жонлар бенишон бўлди,  
Ғиждувон ҳам қабристон бўлди,  
Адолатсиз амир амри билан  
Ёруғ дунё зимистон бўлди.

Хароб бўлди водий беҳаёт,  
На сув, на жон қолди ниҳоят.  
Осмонидан қузғун дайдиб учар,  
О, нақадар аянч у ҳаёт!

Қишлоқ, кўринар жонсарак қизлар,  
Рухсорида йўқ қатра қирмизлар.  
Саратоннинг намозгари хунук,  
Бир-биридан хунук кундузлар.

Тупроқ ҳамон оловланмоқда,  
Аммо қўрқинч, зулмат ҳар ёқда.  
Фақат амир ҳарам хонасида  
Ишрат шами хира ёнмоқда.

#### IV

Ўн йиллардир кўришмай дийдор,  
Ўғил чўлда чўпон, интизор;  
Қаҳратон қиш, жазирама ёз,  
Қон ютади йиғлаб зору зор.

Ғариб дилда танбури ҳамдам,  
Йиғлаб нола айтар гоҳи дам.  
Эл зорини куйлаганда ўзи,  
Қишлоғини эслайди мудом.

Қўбиз сўйлар ғамгин бир ғазал,  
Дарди-мунги сувсизлик азал.  
Бардош тори узилгандай бўлди,  
Кулбасига йўл олди жадал.

Равшан борди ғариб элига,  
Ўтли сўзлар олиб тилига.  
Исён қилиб, тўғонни бузмоқ  
Журъатини жойлаб дилига.

## V

Боғлар ташна, боғда ёнар ўт,  
Сув кўрмайин хазон бўлган юрт.  
Ташналиқдан қақшаган борлиқ,  
Қуриб кетган майса, гиёҳ-ўт.

Ариқларда дард-ғам оқади,  
Сув оқмайди, алам оқади.  
Эл кўнглининг осмони хира,  
Ғам булути беном оқади.

Узоқларда сув жўшар ҳамон,  
Тўлқинлари дарғазаб ёмон.  
Оқишига термулганларнинг  
Дили сиёҳ, ранглари сомон.

Даҳшатидан саҳро қалтирар,  
Кўпиклари тошар, ялтирар.  
Бунча бахил экан Зарафшон,  
Не арзларни ерга қолдирар.

Токай, – дейди Равшан, – эл хароб?  
Токай орзу беманзил сароб?! –  
Ўз халқига содиқ навқироннинг  
Вужудида қайнади ғазаб.

Эл кулса дер, йиғламаса дер,  
Юрак-бағрин тиғламаса дер.  
Ўтлоғимда сув сероб бўлса-ю,  
Кўзи очдан инграмаса дер.

Мана, унинг орзу-армони,  
Мана, унинг аҳду паймони.  
Шунинг учун жонин тиккандир,  
Исён қилмоқ юрак фармони!

Қишлоқ уни мардонам, дейди,  
Қаҳрамоним, парвонам, дейди.  
Қоронғуда эрк учқуни бўлган,  
Ёруғ нурим, дурдонам, дейди.

Кучига тенг келар куч йўқдир,  
Кучига дуч келар дуч йўқдир.  
Бало келса элга қалқон ўзи,  
Кўзи ўтдир, сўзлари ўқдир.

## VI

Қишлоқ аҳли тўпланди шунда,  
Ғазаб майи кўпланди шунда.  
Аҳд қилдилар жон кетгунча дея  
Ҳамма бир тан бўлганди шунда.

Саҳро тўлиб юрди оломон;  
Равшан ёниб сўзлайди ҳамон.  
– Амир энди қаҳримизни кўрсин,  
Тўғонига тошқин бўламан!

Равшан олдда ёлқин – оловдир,  
Оломонга гўё яловдир.  
Халқ ғазаби қайралган қилич,  
Ҳар бирининг юраги довдир.

Бу дер ғазаб қудрати исён,  
Тўғонни даст келтирди яксон.  
Яқдилликнинг ҳадди-кўйи билан,  
Мушкулот ҳам бўларкан осон!

Сув тўлқини тўғонга урди,  
Чўлга телба дарё югурди.  
Туятортар ниҳоясиз водий,  
Умрида бир қониб сув кўрди.

Талвасага мубтало сарой,  
Қўшин юрди олиб қалқон, ёй –  
Халқ устига от чоптириб кирди,  
Шу кун бўйи қон оқизди сой.

Яна алам ёғди осмондан,  
Тутун чиқди зору фиғондан.  
Эл кўзига олам қоронғи тун,  
Қора тоғдир, қора фармондан.

Қақроқ ер қон билан ювилди,  
Оламнинг бор кўрки қувилди,  
Оҳ, мурдалар қолди саҳро тўлиб,  
Ҳаёт битган бўлиб туюлди.

Нидо урди бир парча қоғоз,  
Ҳукм айтди мудҳиш бир овоз.  
Амирнинг ноҳақ амрин эшитганда,  
Ёрилгандай бўлди кўк гумбаз.

Сув ҳайқирмай ғафлатда қолди,  
Бутун борлиқ ҳасратда толди.  
Шум жабрлик ўлим рўйхатида  
Бошлаб Равшан номи аталди.

## VII

Авахтада шам ёқадилар,  
Мотам тутар ўтлоқ, адирлар.  
Одам-а, оҳ, одам кўкрагига  
Заҳарланган мих қоқадирлар...

Тил бормайди айтмоқ учун, оҳ,  
Мушкул жабр тортар бегуноҳ.  
На ҳақорат кўрар инсон шаъни  
(Ҳамон ёлғиз ҳақиқат гувоҳ!)

Қон сапчийди, қонда ётар у,  
Инграр... Ўзи навқирон, сулув.  
Нечук қизғанч, ҳаёт номига ҳам  
Ширин видо, айтолмай ўлув:

– «Зинҳор, – дейди – инсонсиз, ахир,  
Ўлдингиз қийнаманг, оғир.  
Ўлдингиз, ёлвораман, зинҳор,  
Азобимни кўрмоқ азобдир».

Тап тортмади жаллоднинг жони,  
Буткул мараз экан виждони.  
Гўнг тепага тушган олтин каби,  
Поймол бўлди йигит паймони.

Умрлари нақадар пасткаш,  
Одам боқса, кўнгил бўлар ғаш,  
Наҳот булар учун ўлмакликдан –  
Афзал бўлса шу жирканч яшаш?

Жаллод михни беаёв тепди,  
Ҳиссиз экан оҳ, нобуд этди...  
Нор йигитнинг бедор кўзларида  
Энг сўнгги нур ялтираб кетди.

Равшан элнинг равшани эди,  
Шавқи эди, ҳам шаъни эди.  
Хароб бўлди разил қўлларда, у –  
Фуқаронинг фармони эди.

### VIII

Ҳамон водий хароб, беҳаёт,  
На сув, на жон қолган барҳаёт.  
Осмонида қузғун дайдиб учар,  
Ҳамон сув зор арзу ривоят.

Ҳамон қишлоқ оловланмоқда,  
Ҳамон қўрқинч зулмат ҳар ёқда.  
Фақат амир ҳарам хонасида  
Ишрат шами хира ёнмоқда.

Ота келди, у ғолиб келди,  
Ортдан Равшан улғайиб келди.  
Аммо уйда интизор сингилга,  
Сув ўрнига шум хабар келди.

Сув келмади, дард саси келди,  
Юртга ажал ғуссаси келди.  
Шўрлик сингил хор энди, умрбод –  
Бахтсизлик қиссаси келди.

О, Она ҳарам ёнида,  
Хор этилган айш айвонида.  
Йиртиқ кўйлак кийган, тани кўринар  
Телбанамо тўлғанганида.

Гоҳ кимгадир нафрат сўйлайди,  
Гоҳ тикилиб надир ўйлайди.  
Қулоч очиб гоҳ куладир аянч,  
Гоҳ маъносиз қўшиқ куйлайди.

Бу азобга ўзга не чора,  
Не дил борки бўлмас минг пора?  
Сочи тўзиқ, кунлар дарбадар у,  
Ақлидан озган бечора.

## IX

Амир зулмин исканжасида,  
Истибоднинг ғам панжасида,  
Эл суягига қадалди пичоқ  
Қашшоқликнинг тор кулбасида.

Рўшноликни кўрмай кўзи ҳеч,  
Эл кўнглини ўртади ўкинч.  
Олмоқ учун Равшан қасосини  
Ғазаб ўти ёнди эрта-кеч.

Қадалгандай кўксига ханжар,  
Кулфат ичра яшади башар.  
Сувсизликдан қуригандай силласи  
Эрка ташна эди шом-саҳар.

...Бухорода отди янги тонг,  
Янги турмуш, эркин меҳнат, онг.  
Элни янги ҳаёт сари чорлаб,  
Эрк гудоги тонгда урди бонг!

## X

...Йиллар Мажнун, Лайлоси сувдир,  
Кўп ёшликни марг этган шудир.  
Сув ҳаттоки буюк Алишернинг  
Умрини банд этган орзудир.

Сувга қонган фақат биз бўлдик,  
Рухсат кутиб тоқатсиз бўлдик.  
Рухсат беринг, Дарёполвон ҳам,  
Тоғполвон ҳам ўзимиз бўлдик.

Сув бу – элнинг нозу неъматини,  
Сув бу – элнинг зебу зийнати.  
Ариқларда сув тўлиб оқса,  
Бу – ўлканинг нақши санъати.

Ўтмишдан нолиб сув келур,  
Чўлга ҳаёт олиб сув келур.  
Нурли йўлдан ўйнаб, чайқалиб,  
Ғулғулар солиб сув келур.

Боғимизга яна боғ қўшар,  
Олу пишар, шафтоли пишар,  
Даштда меҳнат тантана қурганда –  
Кун Зарафшон билан ўпишар.

Сув оқарди, тўлқини денгиз,  
Равшанидан тунимиз кундуз.  
Сув оқарки, офтоб меҳр тўкар,  
Шонимизнинг ҳар бири юлдуз.

...Ташаккурни ким ҳам айтмайди,  
Кўкимиздан қуёш кетмайди.  
Минг қасида ёзсак, ёшлигимиз  
Мадҳияси сира битмайди.

Жангга кирсак тоғ қадар юрак,  
Шамшир каби қайрилмас идрок.  
Элни десанг Қуёш каби кўзлар,  
Ёндирувчи ўт сўзлар керак.

*Самарқанд,  
1939 йил*

## БАХТЛИЛАР ЮРТИ

I

Қоп-қора ҳаётда зор йиғлатиб умр,  
Ўтганди заррача кўрмай ёруғ нур.  
Диллардек қоронғу, кундуз куни тун,  
Кўзларга кўринмас кундуз, ёруғ кун.  
Қалб тўла орзу бор – осмонлар қадар,  
Қалб тўла алам бор, эзар ғам қадар.  
Орзулар пайҳондир, хонумон хароб,  
Қоп-қора ҳаётда яшаш кўп азоб.  
Умид қўл чўзаркан талпиниб ҳамон,  
Заррача шафқат йўқ, бахтсизлик ёмон.  
Сабр-тоқат тугаб, жангга дер тилак;  
Қўзғалар нафрат-ла исёнкор юрак.

II

Озодлик меваси шу буюк ватан,  
Ўзгариб кенг қўйни бўлган гул чаман.  
Кулиб эл боғида абадий баҳор,  
Эрк қучиб халқ бугун бўлган бахтиёр.  
Бизларга ҳаётбахш қуёш нур сочиб,  
Турмушнинг чиройи кундан-кун очиб,  
Бахтлилар бўстони бўлган элимиз.  
Қувонч ҳам шодликка тўлган дилимиз.  
Кимсасиз қақраган саҳро-чўлларни,  
Ўзгартириб, яратдик чаман гулларни,  
Водийлар бағрини қуршаган кўклам,  
Биздаги ўзгариш жуда ҳам кўркем.  
Кун сайин авж олиб бизда қурилиш,  
Эл, ҳаёт гуллаган, қувончли турмуш.

*Самарқанд,  
1939 йил*

ЖОН БЕРИБ...

*(Қаҳрамон испан халқининг  
икки йиллик курашига атаб)*

Бири оч, яланғоч ғариб онасини,  
Келарди фронтдан ҳолин сўрашга.  
Айрилиқ аламин тортиб иккиси,  
Хор бўлган, зор бўлган дийдор кўришга.

Кўролмас онасин, замбарак ўқи,  
Букилган қоматин яксон қилгандир.  
Жой тополмай жон қўйишга бечора она  
«Оромим қайда?» деб, ночор ўлгандир.

Боласин кўролмай, дилдор оналар,  
Гуноҳсиз ўлдилар, минг армон билан.  
Бир тандир оталар, фронтда ғолиб  
Сафарбар бўлганлар эрк-фармон билан.

Паноҳсиз қолдилар, қишлоқ хароба,  
Вайрон қилди «Junkers» Гитлер фармони.  
Отланди нафрати Испан халқининг.  
Бир тилдан ўлим деб, ғазаб-армони.

Истиқлол ишқини дилда жо айлаб,  
Эркининг постида посбон ўзлари.  
Зим-зиё тун бўлсин мизғимас шунда,  
Дадилдир юраклар, сергак кўзлари.

Икки йил тўлмоқда жоннинг садоси,  
Буюк Алп устидан янграб ўтмоқда.  
Қон бериб, жон бериб ортда қолдириб,  
Испаннынг мард халқи ўзиб-ютмоқда.

*1939 йил*

## ЎЛКАМ

Юракда ишонч уйғотган  
Ватан – боғим, ҳузуримдир.  
Ҳаётимни бол қилиб берган,  
Ки, бахт тоғим, ғуруримдир.  
Ғуруримсан, азиз ўлкам,  
Сен илҳомим, суруримсан.  
Юзимга сен зиё бердинг,  
Кўзимда чақнаган нурумсан.  
Бўлур кўз-кўз жаҳонларга,  
Шараф-шоним ва донғимсан!

Ҳаёт бердинг ва онг бердинг,  
Ки, бахтимсан, чиройимсан.  
Ёзар япроқ улуғ орзу.  
Кулар иқболи ойимсан.  
Бўлур мўл нозу неъматлар,  
Оқар чашмаю сойимсан.  
Қуёш, Ойга ҳусн берган  
Баҳор, гул чиройимсан,  
Олов илҳому онгимсан!

Чаман ўлкам, қуёш ўлкам,  
Баҳор бўлиб ўтар йиллар.  
Боғу бўстон, тоғи кўркам,  
Ўсар райҳону жамбиллар.  
Ҳаётнинг бунда завқи бор,  
Фароғатда яшар эллар.  
Турмушнинг завқ-лаззатини  
Қуйлагай, армони йўқ диллар.  
Илҳом топар дилда, ўлкам,  
Сен қўшиғу оқ тонгимсан!

*Самарқанд,  
1940 йил, 12 февраль*

## ЖАНГ ҚИЛ!

Фикрим сенда, жанг қил, мадорим!  
Қайраб олган яроғинг бўлай,  
Қон ичида ўртоғинг бўлай,  
Жанг қил менинг мадорим, орим!

Жанг қил, ёвга омон бермагин,  
Жанг қил, бахти – баҳорим учун;  
Ёруғ машъал диёрим учун,  
Жанг қил, менинг меҳрибон ёрим!

Жанг қил, бахтим пайҳон бўлмасин,  
Кўз ёшларим уммон бўлмасин.  
Шодмон кўнгил ҳеч қон бўлмасин,  
Жанг қил, менинг бахтим, баҳорим.

Истайманки, кундузнинг куни,  
Туннинг сўнмас юлдузи бўлгин,  
Адолатнинг сен кўзи бўлгин,  
Жанг қил, менинг ҳаётим – борим.

Керак бўлса тез баён этгин,  
Жанг ичида намоён бўлай,  
Зафарингда мен аён бўлай,  
Жанг қил, ёнган чироғим, ёрим!

*1941 йил*

## ОФАРИН

Кетди донғинг ўлка бўйлаб, жангда ўғлон, офарин,  
Мардлингдан ёв бошига ёғди тўфон, офарин.

Шамширинг бор қайралибдир ўч – адолат тошига,  
Шиддатинг бор ёвга офат, этди пайҳон, офарин.

Кул қилиб кўкка совурмоқ ёвни олий фарз эрур,  
Сен элим деб ёвни қирдинг, марду майдон, офарин.

Арғумоқ устида лочин – сен зафарнинг элчиси,  
Маили жавлон айла жангда, тоза виждон, офарин.

Ол қасос, ўғлон, ғанимдан барча кетган қон учун,  
Сенга тикмиш эл кўзини, қайна вулқон, офарин.

*1941 йил*

ФОНТАН ЁНИДА  
(Петергоф эсдаликлари)

Ҳаво тиниқ, кўнглимдай оппоқ,  
Булутлардан асар кўринмас.  
Шабнам билан чўмилган япроқ,  
Гулшанларга кўзларим тўймас.

Енгил шамол Самсон ёнида  
Гуллар билан ўйнашар эди.  
Фин тўлқини баъзан ғувиллаб,  
Қирғоқ билан сўйлашар эди.

Бу ер бўлди бизнинг сайргоҳ,  
Фонтан сочар мунчоқ доналар.  
Сеҳрланиб қолади нигоҳ,  
Ором берар шўх шаббодалар.

Кўз олдимда чўмилган денгиз  
Мўъжизаси дилни тортади.  
Оқшом бўлса, кўкдаги ой ҳам  
Шундан чиқиб, шунга ботади.

Завқим қайнар хуснингга боқиб,  
Сайр этганда сўлим боғингда.  
Гулларингдан чаккамга тақиб,  
Қолсам дейман шўх қучоғингда.

*Ленинград,  
1938 йил*

## НАВОИЙГА

Паҳлавон асрнинг умри тугамас,  
Бу умр оламнинг аввали боши.  
Янчилик кетар ва ҳатто соврилар  
Яланғоч қоялар қоп-қора тоши.

Ўз қадри-қимматин топди ўлкадан  
Янчилмас, соврилмас дурдоналаринг.  
Оташ қалбдан чиққан олтин сатрлар  
Беади шеърият кошоналарин.

Латиф соз қўлингдан тушмасин сира,  
Сотқинларга нафрат айтиб, қулатдинг.  
Қадр-қиммат ҳамда вафони куйлаб,  
Биродарлик ҳам дўстликни уйғотдинг.

Фарҳодига вафо қилди мард Ширин,  
Номард Хусрав юрагини чок этди.  
Бош эгмади, ҳам қўрқмади ўлимдан,  
Ўз орзуси, севгисини пок этди.

Ихлосманд дилимнинг нури дийдаси:  
Фарҳодинг, Баҳроминг, Ширин, Шопуринг.  
Нур, севги, вафою мардоналикни  
Намоён айлади сенинг ашъоринг.

Севгисига вафодорлик, мард туриш –  
Фақат бизга хислат бўлган, бизга ёр.  
Эй, шеърият диёрининг қуёши,  
Сен қалбимиз уйин этдинг мунаввар!

*Самарқанд,  
1938 йил, 30 сентябрь*

## ҚАҲРАМОН ХОТИРАСИ

*1942 йил 6 февралда Шимолий-ғарбий фронт участкаларининг бирида машҳур разведкачи, гвардия катта лейтенанти Ғанижон Тўйчиев ҳалок бўлди. Унинг қабри устида аскардан тортиб генералгача йиғлади ва унинг ўлими учун ёвуз душмандан қасос олишга қасамёд қилди.*

|

«Ватан – юрак, бахт, ширин орзу,  
Юракларда ишқи барқарор.  
Агар жангда қайтсам орқамга –  
Лаънат ўқинг. Яшашим бекор».

Шундай эди унинг шиори,  
Шундай қасам дилга ёзилган;  
Зафар билан кутинг деб, ундан –  
Оташ мактуб элга ёзилган.

Бир кун эди тўполон шамол,  
Қор – денгизда тўлқин ҳайқирар.  
Разведкага кетар қаҳрамон,  
Ёлғиз ўзи, дилда не кезар?

Манзил узоқ, йўлда ўлим бор,  
Аммо Ғани кетарди мағрур.  
Зафар топгай, албатта, зафар –  
Дер ўзига, қалбида ғурур.

– Рухсат этинг, ўртоқ командир,  
Буйруғингиз ижро қилинди!  
Йўлда қўйган бир тузоғимга  
Битта кўппак келиб илинди.

– Офарин сенга, шерзода,  
Ўзбек номи шонга кўмилди.  
Жангда топган шуҳратларингни  
Зафар номи билан эл билди.

## II

Буйруқ келди – бошланди ҳужум,  
Осмон тўла ўқлар ёмғири.  
Одам ўлар, қалбида олов –  
Чақнаб кетар кўздаги нури.

Тонг пайтида шаҳар олинди,  
Шунда ҳалок бўлди Ғанижон.  
Учта орден қолди кўкрақда,  
Томирларда юрмай қўйди қон.

Йиғлама, дил, йиғлама зинҳор,  
Ғани номи шиоринг бўлсин!  
Ғани қабрин тупроғини ўп,  
Унга қалбинг меҳри тўкилсин!

*Шимолий-ғарбий фронт,  
1942 йил, 6 февраль*

## БЕЛГРАД ҚИЗИ

Кўзи чақмоқ, юзи тўлин ой,  
Қуёш каби равшандир чирой.  
Нур ёғади анор юзидан  
Ва томар нур икки кўзидан.  
Табассумга тўла писта лаб –  
Фунча юзни очган эрталаб.  
Қалби жўшқин, тўлқинли денгиз,  
Юзида йўқ ҳеч қайғудан из.  
Қиз онага бир ҳаёт эди  
Ва қайрилмас бир қанот эди.  
Отасининг суянган тоғи,  
Ҳам қалбида орзу булоғи –  
Қизи эди. Қизга меҳри банд,  
Мағрур эди, кўкраги баланд!

Ойлар ўтди, ота жанг қилар,  
Жангда ҳар кун фашистни қирар.  
Қалби бўлган қасоснинг кони,  
Яшил ўрмон эса макони.

Зўр зарбадан талвасада ёв,  
Партизанлар жанги беаёв.  
Бир шом эди, фашистлар келди  
(Қиз қалбини ғазаб, ўч тилди).

Кўрдиларки, соҳибжамол қиз  
Ва бебаҳо ҳусни камол қиз.  
Қутурган ит қизга ташланди,  
Бахт ва номус жанги бошланди.

Қалбида ўч, оташин она  
Қиз бошида эди парвона.  
Қиз курашар, юзларидан қон  
Оқар эди кўксига шу он.  
Кўзларида маржон-маржон ёш,  
Аммо асло эгилмади бош.

Ажал олиб келган қора ёв,  
Қиз қалбида ёқди ўч-олов.  
Қолгунича сўнгги томчи қон  
Қиз олишди ёв-ла беомон...

Ота қайтди шу куни тонгда  
Уйни топди қоп-қора қонда:  
Хотин ўлган, қиз эди беҳол,  
Сўзламоққа йўқ эди мажол.  
Олов тушиб яна жонига,  
Шу кун олиб қизин ёнига,  
Чиқиб кетди ўрмонга қараб,  
Юракларда ўт олиб ғазаб.  
Шундан бери белградлик қиз,  
Қуюқ ўрмон тунда юлдуз,  
Партизанлар ёнида туриб,  
Курашмоқда қони жўш уриб.

*1942 йил*

## СЕНИ ДЕБ КЕЛДИМ

Севдим сени Ватан, севгим муқаддас,  
Севар сени ҳар бир покиза инсон.  
Сен қалбим, номусим, сенсан қадрдон.  
Мана фронт, мана жанг, сени деб келдим.

Кўзим кўр бўлса-да, оёқлар чўлоқ,  
Сени ёд қилганда қушдай учаман,  
Ўқни ёв бошига дўлдек сочаман,  
Мана фронт, мана жанг, сени деб келдим.

Милтиғим қасамёд қилади менинг,  
Найзамдан душманга ажал учади.  
Милтиқдан душманга ўлим ёғади,  
Мана фронт, мана жанг, сени деб келдим.

Қалбим ўт душманга..  
Мана жанг майдони мардлар йиғилган,  
Оёқлар остида мурдалар хирмон.  
Алплар олға борар, ёвга йўқ омон.  
Мана фронт, мана жанг, сени деб келдим.

*Ғарбий фронт,  
1942 йил*

## ЖАНГ ҚИЛАМИЗ ОНА, СЕН УЧУН

I

Она сенга қасамёд этдик,  
Қасам қасос онтидек маҳкам,  
Битта юрак, бир ғоя билан  
Жангга кетдик сафлар мустаҳкам.  
Жанг қиламиз она, сен учун  
Танда томчи қон қолгунча деб.  
Қасам ичдик эл озод бўлсин!  
Гитлерчилар қон ютгунча деб.  
Сен деб она, биз фарзандларинг  
Қонлар кечиб қаҳрамон бўлдик.  
Ерда, сувда, ҳаттоки кўқда  
Зафар қучиб, паҳлавон бўлдик.  
Жанг қиламиз она, сен учун  
Ёруғ жаҳон биз билан ҳамдам.  
Гитлер кули кўкка соврилгай,  
Жаҳон жангда бир дам, бир қадам.

II

Ишон она, юрак қонимиз  
Тўкилган ер бахт қони бўлар,  
Она учун фарзанд қилса жанг  
Фарзанд умри шонга кўмилар.  
Ҳурриятнинг китобида биз  
Сира ўчмас дoston бўлурмиз.  
Биз адолат, биз одамизод  
Тарихига виждон бўлурмиз.  
Шодлик тўлар бутун жаҳонга  
Зафар туғи ҳилпирар мағрур.  
Шунда жаҳон, шунда одамзод,  
Одам бўлиб чин яшар масрур.

*Старая Русса,  
1942 йил, 4 февраль*

## ОНА НАСИХАТИ

Номард бўлиб кунда ўлгунча,  
Мард бўлгин-у, ватан деб ўлгин.  
Онанг қилган энг олий орзу –  
Жанг ичида қайта туғилгин.

Сен – умидим, умрим, ўғлоним,  
Нафас олсам, тоза ҳавосан.  
Кўзларимга сира ўчмас нур,  
Кўнгиладан ярасига давосан.

Шунинг учун юбордим сени,  
Ўвларимни яксон қилгин, деб.  
Қон тўксанг-да, мард туриб жангда,  
Мушкулимни осон қилгин, деб.

Қилич билан заҳарли ёвнинг  
Қисматига сен ўлим ёзгин.  
Мард бўлгин-у, умринг тарихин  
Шону шараф билан тўлғазгин.

Йўл кўрсатсин сенга Ғалаба,  
Қонлар тўкиб, иқбол яратгин.  
Оқ сут ҳақи, қилдим насиҳат,  
Қардошларнинг ёшин аритгин!

*1943 йил, 2 сентябрь*

ЎЛКАМ, ОМОН БЎЛ!  
(Қўшиқ)

Оламга эрк маёғи,  
Қалбда севинч булоғи,  
Иқболимининг чироғи,  
Ўлкам, омон бўл!

Шон тўла бир жаҳонсан,  
Бахтга тўла маконсан,  
Қалбда азиз бир жонсан,  
Ўлкам, омон бўл!

Баҳоримнинг зийнати,  
Боғларимнинг неъмاتي,  
Иқболимининг қиймати,  
Ўлкам, омон бўл!

Қасд айламиш разил ёв,  
Жанг бошладик беаёв.  
Зафар бўлур, юрак дов,  
Ўлкам, омон бўл!

Жаҳон сенга тикар кўз,  
Сен жаҳонга бир юлдуз.  
Ўчмас бахтсан, нур, кундуз,  
Ўлкам, омон бўл!

*1943 йил*

## ЖАНГЧИ

Биз жангчимиз, халқнинг жангчиси,  
Бу ном бизга ватан инъоми,  
«Душманларга қирғин солувчи»  
Бўлмиш бугун жангчининг номи.

Биз ҳақлимиз, наърамиз мағрур.  
Ватан учун тўкмоқдамиз қон!  
Фашистлардан эл озод бўлсин,  
Шу юрт яна бўлсин чароғон.

Она юртнинг кенг йўлларида  
Маккор душман ўлиб битажак!  
Бу улуғ жанг дунёга яна  
Тотли ҳаёт ҳадя этажак.

Ботир жангчи – у озодликдир,  
Ҳурриятдир унинг шиори.  
Ботир жангчи келар кунларнинг  
Ифтихори, номуси, ори!

Йиллар ўтар, асрлар ўтар  
Жангчи номи доим бўлар ёд..  
Шу мард жангчи ўтган элларда  
Порлоқ ҳаёт бўлажак бунёд.

*1943 йил*

ҚАСОС ОЛ!

*(Дўстимнинг қаҳрамонона  
ўлимига бағишлаб)*

Унинг номи ўлмас афсона...  
Қуёш каби кўргай умрлар.  
Асрларнинг тарихи ундан,  
Сира ўлмас дoston эрурлар.

Қайғурма дил, унга офарин,  
Ўлимларни ўлдириб ўлди.  
Ўлим дами, мард туриб жангда  
Ғалабани келтириб ўлди.

Дўстим ўлди жангда шон билан  
Шундай ўлим ўзи бир иқбол.  
Ўлка деди: «Қани жангга кир!  
Дўстинг учун ёвдан қасос ол!»

*1945 йил*

## БАЙРАМ ТОНГИ

Кундузини қуёш уйғотар,  
Шуъласини кўриб тонг отар.  
Шуъла билан нурафшон ҳаёт,  
Жамолини мудом бойитар.

Нур манбаи машриқ мунаввар,  
Тун бетига мудом тонг ёзар.  
Дил мулкида мўътабар ўлка  
Тонги отар ҳусни зебу зар.

Ўлкам тонги нақадар гўзал!  
Ҳусн берар оламга азал.  
Жамолига ошиқ бўлиб кун,  
Диёримни безар, бериб ҳал.

Кенг ўлкада байрам – тантана,  
Дилларда завқ қилар пўртана.  
Ҳар кун байрам, ҳилпирар байроқ.  
Хитоб этар оламга яна.

Шу ўлкада башарий тилак,  
Шунда орзу юксалар, ўсар.  
Қонли жангда қилдик ғалаба,  
Бахтли кунга бўлиб муяссар...

*Самарқанд,  
1945 йил*

## ПЎЛАТ ҚУЮВЧИ

Ягона иш, олий интилиш –  
Ишда бўлар Пўлат азондан.  
Шижоатни кўрганда темир  
Сувдай оқар эриб қозондан.

Меҳнат билан топади шуҳрат,  
Жони фидо жанговар ишга...  
Оташ ёнар, қаршида гўё –  
Қуёш келган олқиш айтишга.

Юрагида ғайрат ёнадир,  
Пўлатни ҳам эритган ғайрат.  
(Ўт ичида қайта тобланиш –  
Ғайрат пайдо қилган жасорат).

Йигирма йил олов ичида,  
Пўлат бўлиб қуюлгандир тан.  
Олов билан жон бўлиб кирган,  
Ишчи қалбга шу улуг Ватан.

Ягона иш, олий интилиш –  
Ишда бўлар Пўлат азондан.  
Шижоатин кўрганда пўлат  
Сувдай оқар эриб қозондан.

*Самарқанд,  
1946 йил, декабрь*

## ОТА

Етмишда ёш бўлиб майдонга тушдинг,  
Ўлкамга қонсираб кирганда ағёр.  
Меҳнатнинг жангидан зафар яратдинг,  
Қалбингда ғайратнинг чиндан ўти бор.

Қасаминг қайралди ғайрат тошига,  
Меҳнат дарёсидан тўлқин яратдинг.  
Кетмон мўъжизасин қилиб намойиш,  
Фидокор кучингга элни қаратдинг.

Қирқ йиллик қадрдон кетмон ҳамдаминг,  
Қўриқнинг қалбига сен ғўза экдинг.  
Кўракда ўн грамм олтин ўстириб,  
Мамлакат томрига зафар қон тўлқин.

Белинг тўла кучдир, кўзинг тўла нур,  
Давримдай юксалди сенда тафаккур.  
Қон томар юзингдан худди бўзбола,  
Пахтанинг шавқидан сен олиб сурур.

Ўлкам деди сенга минг-минг офарин,  
Олқишга кўмилди қарилик шони.  
Зафар йилларининг ёдгори бўлиб  
Кўксингда нур сочар шараф нишони.

*1946 йил, 14 ноябрь*

КУНДАН ОЛДИН...

У теримга чиқади  
Кундан олдин кун бўлиб,  
Лаҳзаларга ярашган  
Ойдин жамол ой тўлиб.

Лабин очиб кўсақлар  
Уни ҳар дам кутади,  
Кечроқ келса теримга  
Соғиниб ғам ютади.

Ўзи ҳам худди шундай  
Пахта бўлган улғайиб,  
Меҳр билан пиширган  
Олий териш нияти.

Ҳар кун терар юз кило  
Ҳамма олқишлар уни,  
Унга аён ҳамиша  
Пахта – ҳаёт мазмуни.

Қиз пахта деб оқ терган  
Умрин қўйиб гаровга,  
Қасамини бажариб  
Ўлим келтурур ёвга.

*1941 йил*

## АЗИЗ ПАХТАКОР

*Оппоқ пахта битган серунум ерда  
Озод меҳнат зўр жадал билан  
Инсонни қайтадан кўкартирганда,  
Ҳар минут сен ўзинг биз билан бирга.*  
(Ҳамид ОЛИМЖОН)

I

Эсимда бор қирқ биринчи йил,  
Бағримга ўт тушган оловли кунлар!  
Диёрим кўкида қоп-қора тунлар...  
Эсимда бор қирқ биринчи йил.

Эсимда бор бахтли боғимни  
Жаҳаннам айламоқ истаган жаллод,  
Ўлим либосида келиб ўлкамга  
Мурдалардан қилди хирмонлар бунёд.

Коинот устида ажал қузғуни  
Сайр этди, оламга солиб ваҳима.  
Жар солиб дунёга ўлимдан, гўё:  
Ҳаётки тўлқинда қолган бир кема.

Тўлқинлар қаҳрини енгиб мардона,  
Кемани бошларди улуғ капитан.  
Жанглар оташида у йўлчи юлдуз  
Зафарга кетарди бутун бир ватан.

II

Уруш борар эди қонли тус олиб,  
Ёмғир бўлиб ёғар кўқдан қўрғошин.  
Қўрғошин ёғарди, ажал ханжари  
Шарт кесиб ўтарди умрнинг ёшин.

Ажалга ажал бўлдим мен унда ҳар чоқ,  
Ўт бўлиб ёнардим, жанг қилар эдим.  
Ўлим эса мендан тўрт қадам йироқ  
Турарди, мен унга ҳамла қилардим.

Немис – ўлим эди, мен эдим – ҳаёт,  
Менга қўл чўзарди бутун коинот.  
Мен – адолат эдим, у эди – офат,  
Мен – саодат эдим, улдир касофат.

У билан қон кечиб олишар эдим,  
Тупроққа беланиб солишар эдим.  
Шу дамда сен келдинг мадаккор бўлиб,  
Мўл пахта – ўқ-дори, ғазабга тўлиб.

### III

Сен келдинг кўмакка азиз пахтакор,  
Сен келдинг душманга шиддатим ошди.  
Сен келдинг кўпайди қудратим, қаҳрим,  
Душманга ғазабим яна туташди.

Сен келдинг танимга янги жон олиб,  
Сен келдинг томримга янги қон олиб.  
Сен келдинг снаряд, ўқ олиб менга,  
Сен келдинг урушнинг авжи бошланди.

Сен келдинг урушнинг авжи бошланди.  
Тўлқинлар беаёв оташ наҳрида.  
Тўпларнинг дамидан оловлар ёнди,  
Ғалаба келарди бомбанг қаҳрида.

Енгилиб ёв қочар, ҳужум беаёв,  
Ажаллар ёғилди унга пахтангдан.  
Жангчилар қўлида музаффар ялов,  
Табриклар ва сўзлар ғолиб бахтингдан.

#### IV

Онт ичдинг умрингни қўйиб ўртага,  
Қиличдай қайралиб майдонга келдинг.  
Мангуга ёзилди исмингдан қасам,  
Ғалаба жангининг илҳоми бўлдинг.

Мардона онт ичдинг, азиз пахтакор,  
Меҳнат денгизига ташладинг ўзни.  
Қалбингда ҳукмрон бўлди бир орзу  
«Юздан сўзласин кузда тарози».

Тер тўқдинг қасамни бажармоқ учун,  
Асрлар даштига бошладинг исён.  
Қасамнинг тошига қайралди ғайрат,  
Қудратинг қўриқда яратди туғён.

Юрагинг тоғ экан, ғайратинг булоқ,  
Меҳнат денгизида сен эдинг лочин.  
Ўлкамиз пахта деб берганда буйруқ,  
Қудратинг пахта деб ёзди қулочин.

#### V

Меҳнатинг мўъжиза яратди чўлда,  
Ғайратинг кўп эди дарёда сувдай.  
Ғайратинг, меҳнатинг, меҳринг сувидан,  
Ҳар ниҳол ўсарди дилда орзудай.

Ғўзадай кўкарди сендаги ҳавас,  
Меҳнатинг боғини лолазор қилди.  
Ғўзалар қулф урди, унинг томрига,  
Ишқинг дарёсидан шарбат тўкилди...

## VI

Нақадар бахтлисан, азиз пахтакор,  
Ғалаба тўйига шон билан келдинг.  
Қурултой ялови бўлди шуҳратинг,  
Ўлкам олқишига тўлдинг, кўмилдинг.

Розидир эл сендан, розидир ватан,  
Шуҳрат китобида номинг сарлавҳа.  
Меҳнатинг гаштидан янги боғ очдинг,  
Тарихнинг бетида сен ўчмас лавҳа.

Мен келдим душманни абадий янчиб,  
Шарафга тўлдириб умримни, йўлдош.  
Зафардан совғалар қилиб сен учун,  
Пахта деб кўмакка келдим, тилакдош.

Кел энди, бир бўлиб пахта экайлик,  
Пахтамиз – бахтимиз, пахта шараф-шон.  
Ўлкамиз пахта дер, пахта дер диёр,  
Ватан муҳаббати дилларда нишон.

## ДЎСТИМГА МАКТУБ

Кўзингнинг қароси бўлмиш диёринг,  
Ёвдан сақламоқлик номусу оринг.  
Сени жанг, эй дўстим, қайта яратсин,  
Жангда зафар сенинг бўлсин шиоринг.

Қасос ол, ғанимдан шиддатга тўлгин,  
Қонли жанг ичида қайта туғилгин,  
Ҳам сурур, ҳам ғурур бўлган ватанга –  
Муқаддас севгининг мазмуни бўлгин.

Бир қадам орқага силжима, ўғлон,  
Ёвга ўт ёғилсин гўёки тўфон,  
Қиравер разилни, дам бермайин қир,  
Хур нафас олгунча шу ёруғ жаҳон.

## ЗАРАФШОН

*(Катта Зарафшон канали фидокорларига)*

Она хаёл суради...

Ёлғизи кўмилган сувнинг бошига,  
Золимлар заҳар сочган унинг ошига  
Яна баъзан худо дер, йиғлар, ёлворар,  
Нажот ҳеч, бағри қон, сувга термилар,  
Ўйнаб-ўйнаб оқар эди телба Зарафшон.  
Боқар унга шўрлик она, кўнгли паришон.  
Кўрингандай бўлар ундан Равшаннинг юзи,  
Кўрингандай бўлар ундан Равшаннинг кўзи.  
Яна боқар кўзларида маржон-маржон ёш,  
Дили куяр, бағри ёнар, беролмас бардош.  
Кўзда ёш, дилда алам, сочларин юлар.  
Жудоликнинг аламлари дилларни тилар.  
Нима қилсин, қомати ёй, алам тошидан,  
Сув деганда Равшан кетган ёлғиз бошидан.  
Бола интизор отага, айрилиқ ёмон,  
Айрилиқ ёмондир, куйдирар ҳамон.  
Шундай бўлган ёлғизим деб, она тўккан ёш,  
Айрилиқнинг алами-ла олиб кетган бош.  
Қариб ота жафо билан кетган сургунга,  
Нима қилсин бу ташналик солди шу кунга.  
Бир авлоддан ном қолмади, нишон қолмади,  
Ҳаёт оти бир авлоддан асар қолмади.  
Яна қайғу, яна алам, яна куймоқ дил,  
Йўқчиликнинг оҳи билан хароб бўлган эл.  
Сабр-тоқат битган энди йўқсиллар бир тил,  
Ҳазаб билан тўлқинланар ғариб, ташна эл,  
Кетмон, ўроқ, болта, теша қўлларда қурол,  
Ҳамма бир тенг «Борлиғингни кел, ўртага сол»,  
Ҳамма борар ҳазаб билан тилак, армон бир.

## ЖАМОЛИНГ

Термилдим кўзларингга, офат оромижон  
жамолинг,  
Ҳаргиз соғинсам гўзал, улфатижон жамолинг.

Менга боқар вафодор, кунми жонон жамолинг,  
Юзларингда табассум кунми жонон жамолинг.

Ҳар кўзга бир қуёшсан, ҳар юракка бир армон,  
Қилмиш дилимни хумор, севги макон жамолинг.

Ошиқларинг кўп экан, Шароф бири парвона,  
Зор этма, эй қизгина, офатижон жамолинг.

## САНЪАТКОР ҚИЗГА

Чашма сувдек зилол дилларинг,  
Қўшиқчидир бийрон тилларинг,  
Мунча моҳир кўркам қўлларинг,  
Хурмат сенга, ёшлигинг кулсин.

Юзинг ойдек, унда йўқ ғубор,  
Сенга «меҳмон» бўлмас алам, зор,  
Бахтиёрсан куйла, мана тор,  
Жарангласин санъатинг, созинг.

Кўкрагингда порлар нишонинг,  
Ғолиб санъат, бахт – шараф-шонинг,  
Шўх замонда кулгуси донғинг,  
Хурмат сенга, ёшлигинг кулсин.

*Самарқанд,  
1937 йил*

## СИНГИЛГА

Навбаҳоринг чаманзорида,  
Гуллар тердинг қувнаб, дасталаб.  
Кулиб боққан фазодаги ой  
Жилва қилар сенга эркалаб.

Бу Ватаннинг ер юлдузлари  
Сендай ёруғ, сен каби қувноқ.  
Кулиб турган қора кўзларинг,  
Меҳнат боғин гулига муштоқ.

Бахт байроғинг нурда товланар,  
Иқболингни йўқ интиҳоси.  
Эрк ғунчаси тинмай гул очар,  
Сочларингни силар сабоси.

Бу Ватанда бизлар дўст, қардош,  
Юрагимиз тонгдек беғубор.  
Бошимизда нур сочган қуёш  
Бугун биздек шод ва бахтиёр.

*Жиззах,  
1937 йил*

## ИШҚ ҚҰЙДИМ

Мудом кўнглимга шавқ берган у ҳамдам ёра  
ишқ қўйдим,  
Вафо, севгини соф тутган азиз дилдора ишқ қўйдим.

Жамоли ойдин ўзгандир, кўзида лахча юлдуз бор,  
Тўлин ойни уялтирган у ой дийдора ишқ қўйдим.

Кўнгилни бердим у ёрга, изларин тўтиё қилдим  
Ва ишқини дилга жойлаб, кўзи хумора ишқ қўйдим.

Нигорнинг жазмидин завқим ошар, қалбимда  
кон севгим,  
Ҳаётим зийнати бўлган юзи анора ишқ қўйдим.

Йигитлик боғига кирдим, севилсам, севсам арзийди  
Ва қалбимда ўсар орзум, ажиб гулнора ишқ қўйдим.

Умр боғин ўпиб, бир-бир фасллар ғир-ғир ўтмоқда,  
Чунон болдир тўёлмайман, ҳаёт ҳам ёра ишқ қўйдим.

*1938 йил*

## ҚУВОНЧЛИ ДИЛЛАР

Диллардек оппоқдир ойдин кечалар,  
Тўлин ой самода жилмаяр эди.  
Ошиқдек кўз узмай телмулар эди,  
Диллардек оппоқдир ойдин кечалар.

Ойдин кеча севгили дилбарим билан  
Гул боғларда қувонч гаштини сурдик.  
Гулзорда гул териб, Ой билан юрдик,  
Ойдин кеча севгили дилбарим билан.

Эрта байрам, дилларда завқимиз жўшар,  
Ширин суҳбат, орзулар унга боғланган.  
Намойиш аршига юрак чоғланган,  
Эрта байрам, дилларда завқимиз жўшар.

Хайрлашдик чарос кўз дилбарим билан,  
Ширин сўз, орзулар, суҳбатга қона.  
Бизга боқиб Ой бўлди кўкда парвона,  
Хайрлашдик чарос кўз дилбарим билан.

Субҳидам, зар кокилин қуёш ёймаган,  
Ёқут уфқ, қизил атлас либос киярди.  
Боғ оралаб, гул тутиб дилбар келарди,  
Субҳидам, зар кокилин қуёш ёймаган.

Тонг шамоли гуллар-ла ўйнашар эди,  
Ғунчалар қуёшга юзин очарди.  
Япроқлар оралаб ёғду сочарди,  
Тонг шамоли гуллар-ла ўйнашар эди...

*Самарқанд,  
1938 йил, 1 май*

## ҒУНЧА

I

Менга, гўзал, юбординг,  
Оқ шоҳидан рўмолча.  
Рўмолчага солинган  
Кўп чиройли бир ғунча.

– Ғунча,– дебсан,– иккимиз –  
Меҳр қўйган чин ҳаёт.  
Ғунчани узмоқ истар,  
Ажал олиб келган ёт.

Ғунчани қил ҳимоя,  
Жоним, сендан сўроғим.  
Мен – бир чаман, сен – боғбон,  
Асра, уни чироғим.

II

Зафар учун яшайман,  
Жангда туғилсин иқбол.  
Ўн еримдан ўқ есам,  
Ёв олдида бўлмай лол.

Жанг ичида, гўзалим.  
Олов бўлиб ёнаман.  
Ажал келтириб ёвга,  
Тўлқин бўб тўлғонаман.

Меҳр қўйган чин ҳаёт –  
Сен юборган гулғунча.  
То ўлгунча асрайман,  
Гул бўлиб очилгунча.

*Ғарбий-шимолий фронт,  
1942 йил, 6 ноябрь*

## БОҒ КЎЛИДА

Кўлда ўйнар эди тўлин ой,  
Жамолини тўлқин оқизар.  
Баъзан ором олганда тўлқин,  
Ой ёзарди яна зебу зар.

Мен кўлдаман, кўк денгизда ой  
Бирга-бирга мен билан сузар.  
Дилда алам, олам орзулар,  
Толеимда мен билан зафар.

Умид эрур ўчмас қуёшим,  
Кўзларимга нури қуйилар.  
Бағрим баҳор, мунаввар ҳаёт  
Мудом менга ўз умрин улар.

Бахтим байроқ севинч – тантана,  
Боғда бахтиёрлар тўйидир.  
Чаман кезиш, сайри боғ этиш,  
Ҳар юракнинг ширин ўйидир.

*1942 йил, июнь*

## ҚИЗ СЕВГИСИ

Атакада ўқ едим юздан,  
Юзни ювар эди қизил қон.  
Ҳамон ўтман, олға учаман,  
Қалбим ёнар гўёки вулқон.

Снарядлар шунда ёрилар,  
Тинмай сайрар эди пулемёт.  
Мен учаман, ўлим кўринмас,  
Еру осмон тўла олов-ўт.

Ўздан кетдим, қорга йиқилдим,  
Кўзларимда қоронғу жаҳон.  
Кўзни очсам, шом кириб қолган,  
Юзларимни сийпар бир жонон.

– Раҳмат сенга, эй жанговар қиз,  
Мажруҳ қалбга бахш этдинг ҳаёт.  
Револьверни бериб қўлига, –  
Дедим, – гўзал, мана, ёвга от.

– Биз этамиз ёвларни тор-мор, –  
Деди гўзал, – Сизга от тайёр.  
Ва танимга югурди дармон,  
Менга бўлди қиз севгиси ёр.

*1943 йил*

## ШИРИН ХАЁЛЛАР

Сув бўйида сайр этдим,  
Хаёлим оқиб кетди.  
Гўё тўлқинлар билан  
Ёримга бориб етди.

Мана фронт, мана жанг,  
Мана севган ҳамдам ёр,  
Гўё мен ҳам ёнида,  
Жангга киришга тайёр!

Дилда ҳукмрон тилак:  
Ёр билан жангга кирсам.  
Ёрим, диёрим учун  
Балоларни даф қилсам.

Ёрим берди автомат,  
Кирдим ёнган оловга.  
Севги ҳақи, қон ҳақи,  
Ажал ёғдирдим ёвга.

Кўзларига термилдим,  
Бағрига отдим ўзни.  
Кўзим ёшлари айтди:  
«Соғиндим!» – деган сўзни.

Ҳар кун ширин хаёллар,  
Менга ўқийди дoston  
Ва севгимнинг боғини  
Айлар чаман, гулистон.

Эй, севганим, жангчи ёр,  
Ёвни тезроқ тамом эт!  
Сенга умидвор диллар,  
Элни дориломон эт!

*1943 йил, 2 сентябрь*

## ЁР КЕЛУР

Ёр келур, ёзим келур,  
Юракда орзум келур,  
Худди тўлқиндан тошиб,  
Дарёйи – азим келур.

Кўпдан мени зор этган,  
Қалбимга озор этган,  
Ёр келур узоқлардан,  
Дилни интизор этган.

Бағрига бош қўярман,  
Тўйиб-тўйиб ўпарман,  
Жондан азиз ёримни  
Дийдорига тўярман.

Келсин дейман азиз ёр,  
Юракни қилди хумор,  
Кўп соғиндим дилдорим:  
Зафар билан келгин, ёр!

*1943 йил*

## УЯЛМА

Мен кетганда анча ёш эдинг,  
Боғбон қизи – гуллар эркаси.  
Мана энди ойдек тўлибсан,  
Юрагимнинг шўх арзандаси.

Менга атаб гуллар экибсан,  
Очилибди худди ўзингдай.  
Гулларингга хуштор юлдузлар  
Термилади чарос кўзингдай.

Ғунча эди қалбимда севги,  
Энди чаман бўлиб очилди.  
Оташларда тобланиб, эркам,  
Йўлларингга дурдай сочилди.

Соғинганим, мунча қизардинг,  
Юзинг бўлди худди нақш олма.  
Узоқлардан келдим сени деб,  
Кел, гўзалим, энди уялма!

*1944 йил, 2 сентябрь*

## КЕЛСАНГ

(Қўшиқ)

Бир умр шодмон бўлурман,  
Зафаримга шон бўлиб келсанг.  
Дарё бўлиб тошгай севинчим,  
Достони жаҳон бўлиб келсанг.  
Ёв бошига ёғдириб ажал,  
Қайнар вулқон бўлиб келсанг.  
Мен бўлурман сендан миннатдор,  
Рустам намоён бўлиб келсанг.  
Онанг рози минг бор сендан,  
Ёвга тўфон бўлиб келсанг.  
Элга вабо бўлмиш ёвни,  
Енгиб, шодмон бўлиб келсанг.  
Жаҳон сени қўшиқ этар,  
Марди майдон бўлиб келсанг.  
Битта қолмай қириб ёвни,  
Довруғи дoston бўлиб келсанг.

*1943 йил*

## ШИРИН ХАЁЛ КЕЛАРМИШ

Бағри баҳор ўлканинг  
Хуснига хол келармиш.  
Ойдин ўзиб жамоли  
Толери ҳилол келармиш.

Хаёл эди дилларда,  
Достон эди тилларда,  
Сайхун банди бўларкан,  
Оби-зилол келармиш.

Толе кулар, бахт кулар,  
Чўлда севги етилар,  
Сайхун бўйида байрам,  
Ширини бол келармиш.

Янги зафар, янги шон,  
Қаҳрамонлик чин нишон,  
Янги умр, янги тўй –  
Ширин хаёл келармиш.

Жангда қозондик зафар,  
Умрга иқбол ёзар.  
Диёримга нур сочиб,  
Ширин жамол келармиш.

*1944 йил*

## КЕЛИНЧАК

(Баллада)

Икки кун ёр билан кўрганинга кун,  
Жудолик кулфати тушди бошинга.  
Жанг томон йўл олди севимли куёв,  
Ҳижрон томчисини қўшди ёшинга.

Жон ширин, жондан ҳам минг бор ёр ширин  
Жонингни, эй гўзал, жангга узатдинг.  
Бўйнига қўл ташлаб, кўзда ёш билан  
Дийдорига тўёлмай, ёрни кузатдинг.

Шу ватан ҳақи деб, мардона куёв  
Жамолинг шавқига тўёлмай кетди.  
Васлинг чаманида ягона боғбон  
Очилган гулини суёлмай кетди.

Ёр кетди, севгиси улғайиб кетди,  
Қалбида ёрини сақлаб жанг томон.  
Ғалаба шиори – севгига гаров,  
Севгидир кўксида ўқ ўтмас қалқон.

Севгига қўшилган ватан тақдири,  
Севгига қасд қилди одамхўр жаллод.  
«Севгини ҳимоя айламоқ савоб!» –  
Дединг-да, ёр билан қилдинг қасамёд.

Қасамёд айладинг: қўлингда кетмон,  
Меҳнат жангларида сен бўлдинг лочин.  
Мўл ҳосил олгин деб она тупроқдан,  
Пахтазор сен учун очди қулочин.

Етмишта немисни ўлдирганда ёр,  
Пахтадан яратдинг каттакон хирмон.  
Шарафга буркадинг исмингни жангда –  
Орденга муяссар бўлдинг, қаҳрамон!

Ёрингни жўнатган кунларда йиғлаб –  
Тўкилган ёш учун афсус қилди кўз.  
Меҳрибон ёриннинг меҳри оловдир,  
Муҳаббат ўтлари қалбингда наврўз.

Юрагинг тоғ экан, минг бор офарин,  
Бардошинг қудрати келтирди ёрни.  
Уч баҳор интизор бўлган юраклар  
Минг-минг карра рози қилди диёрни.

Ёр келди, ўлимни ўлдириб бу кун,  
Мард умр тарихга шон ёзиб келди.  
Етмишта немисга келтириб ажал,  
Кўксини нишонга тўлғазиб келди.

Ғалаба қўлини узатди сенга,  
Бахтинг бор, эй санам, гўзал келинчак!  
Чаманлар кўксини очди сен учун  
Меҳнатда яйраган, яшнаган чечак.

Қора кўзларингда иқбол юлдузи,  
Лўппи юзларингда бир олам севинч.  
Интизор қалбингда висол кулгуси,  
Ҳаётинг завқидан тўйиб-тўйиб ич!

Ёр келди: янги тўй, янги тантана,  
Ёр эса қайтадан туғилган куёв.  
Сен яна дилафрўз янги келинчак,  
Абадий ўлимга маҳкум бўлди ёв.

*1945 йил, 2 июнь*

## УМР БАҲОРИ

Умр баҳорига энди кирганман,  
Нақадар шириндир минутлар, кунлар.  
Асрлар умрининг мазмунига тенг –  
Умримнинг мазмуни бўлган якунлар.

Умрим мазмунини меҳнатдан излаб,  
Файрат денгизига ташладим ўзни  
Ва лочин сингари денгизда ғолиб –  
Келдим, бошладим умри наврўзни.

Навқирон ўлкада ўсдим, улғайдим,  
Шу ўлка бахтимнинг булоғи бўлди.  
Бахтимга қасд қилган одамхўр жаллод,  
Озодлик жангида гўрга кўмилди.

Ҳаёт деб жангларда кетган йигитлар,  
Зафар баҳорида қайтиб келдилар.  
Умрини шарафга тўлдириб ундан  
Иқбол қўшиқларин айтиб келдилар.

...Умр баҳорига энди кирганман,  
Нақадар шириндир минутлар, кунлар.  
Асрлар умрининг мазмунига тенг –  
Умримнинг мазмуни бўлган якунлар.

*Самарқанд,  
1946 йил, май*

## ТЎЛИН ОЙ

Тўлин ой, толеинг баланд келибдир,  
Озод эл кўкида яйра беармон.  
Бағрига босади сени кўк денгиз,  
Ғалаба осмони – бахтиёр осмон.

Нақадар бахтлисан, Тўлин ой, эркам,  
Шодлик нури билан тўлибдир кўзинг.  
Таҳсинлар ўқигин қаҳрамон элга,  
Қузғунлар ваҳмидан озод манзилинг.

Иқболинг чироғин ёқиб абадий,  
Юртинг осмонида ёнар зўр олов.  
Зафар салютлари сендан ҳам баланд,  
Чиқурлар жаҳонга кўрсатиб ялов.

Ошёнинг тарк этма гўзал келинчак,  
Бунда тўй, тантана, абад кундузлар.  
Шундан жаҳонга нур сочар мудом,  
Сенга нур, сенга бахт берган юлдузлар!

Тўлин ой, толеинг баланд келибдир,  
Озод эл кўкида яйра беармон.  
Бағрига босади сени кўк денгиз,  
Ғалаба осмони – бахтиёр осмон.

*1947 йил, июль*

## УХЛА ҚЎЗИМ

Ухла қўзим, дилдорим фасл,  
Ором олгин иссиқ қўйнимда.  
Ухла ўғлим, ҳаётинг асл  
Кўзни юмгин, ишқинг бўйнимда.

Ухла менинг арслоним ўғлим,  
Сочларингни севиб сийпалай.  
Бошгинангда бўлиб парвона,  
Жонгинам деб дилдан аллалай.

Шу ўлканинг ишқи билан ўс,  
Юрагимнинг сурури ўғлим.  
Ёвларимга беаёв бўлгин,  
Кўзларимнинг сен нури ўғлим.

Билгин қўзим, бахтли онанинг  
Бу бўлғуси меҳри алласи.  
Севган она – меҳрибонингни,  
Сенга айтган янгроқ алласин.

## СЕВГИ БИЛАН

*(Фронт эсдаликларидан)*

Гар қуёшга айласам сафар,  
Севги билан топарман зафар.  
Гар ажалга бошласам исён,  
Севги билан енгишим аён.  
Севги билан кўзларим олов,  
Мардлигимдан қалтирайди ёв.  
Севги дўстдир, севги йўлдошим,  
Севги билан порлар қуёшим.  
Кечаларни уйғоқ ўтказдим.  
Юлдузларга термилиб ҳамон,  
Қалбим тўла кўп орзу-армон,  
Муҳаббатдан номалар ёздим.  
Ухлай десам, босади хаёл,  
Кўзим тушар ёрнинг кўзига,  
Кўзидаги жуфт юлдузига,  
Муштоқ бўлиб, термиламан лол.  
Ҳамма ерда ҳамроҳдир ҳар он,

Ҳатто жангда юрар ёнма-ён.  
Разведкада уни кўраман,  
Ҳужум пайти мен билан юрар,  
Қаҳр билан олға югурар,  
Зафарда ҳам бирга бўламан.  
Украина учун жангдаман,  
Ёруғ жаҳон мени кузатар,  
Менга қараб қўлин узатар,  
Зафар олиб оппоқ тонгда ман,  
Бағрим олов, ғарбга учаман.  
Дилда ширин орзуларим бор  
Омон бўлсин шу азиз диёр!  
Севгим ҳақи қасам ичаман.  
Севги қуёш, сеvgи шараф-шон,  
Севги билан ғолибман ҳар он!



Sevgi bilan  
g'olibman har on!





## VATAN ISHQI

Erta tongda ufqdan boqar,  
Sochin tarab nurafshon quyosh.  
Unga suq-la termilar bashar,  
Chunki quyosh biz bilan tengdosh.

Bizga jilva qilganday yulduz,  
Nozlanadir baxtim tongida.  
Posbonimiz kecha-yu kunduz,  
Ishqi yangrar qalb ohangida.

Saodatim nurday tovlanur,  
Bizga boqqan zavq ila Vatan.  
Unga mening muhabbatim zo‘r,  
Fido bo‘lsin unga jon-u tan.

Olov yoshlik uradir javlon  
Keng fazoni qamal qilishga.  
Vatan ishq i undar begumon,  
Lochinlarday uchqur bo‘lishga.

Mana shunday bu bizning hayot,  
Kundan kunga olg‘a ketajak.  
Ilhomimga berib zo‘r qanot,  
Mamlakatim gullar tutajak!

*Jizzax,  
1937-yil*

## MEHNATIM

Sen dedim bo'ldi hayot bol, sen huzurim, mehnatim,  
Sen bilan yashnaydi iqbol, sen sururim, mehnatim.  
Dilga ishq, tilga qo'shiq bo'lgan g'ururim, mehnatim,  
Ham g'ururim, ham sururim, ham huzurim,  
mehnatim!

Oy etib ko'z-ko'z qilurman, mehnatimning zavqini,  
Pok muhabbat chashmasi, shon mehnatimning  
shavqini.

Bir umr o'chmas, tugalmas dillarimning yolqini,  
Ham g'ururim, ham sururim, ham huzurim,  
mehnatim!

Sen go'zalsan, sen asalsan, ahd-u paymonim senga,  
Cho'l, biyobon gulga to'lsin, orzu-armonim senga,  
Qonga botsin, yov qirilsin, dilda farmonim senga,  
Ham g'ururim, ham sururim, ham huzurim,  
mehnatim!

Sen bilan ochdim ko'zimni, sen bilan bo'ldim aziz,  
Sen bilan kuldi diyorum, sen bilan turmush laziz.  
Sen bilan olam yorug', sen berding menga non-u tuz,  
Ham g'ururim, ham sururim, ham huzurim,  
mehnatim!

*1938-yil*

## GUL DIYORIM BOR

Quyoshni o'zga jazm etgan  
Bog'im bor, gul diyorim bor.  
Diyorim ishqidan kuylar  
Kuyim bor, bastakorim bor.

Quyoshday sochib yog'du  
Kularman, mehribonim bor.  
Kulib boqqan to'lin oydek  
To'larman, jonajonim bor.

Dilimga ishq jo har dam,  
Hur o'lkam – gul Vatanim bor.  
Bu chamanda baxtiyorman,  
Bog'im bor – sho'x chamanim bor...

*Samarqand,  
1938-yil, 12-iyun*

ERK ISTAR KO'NGIL  
(N.G. Chernishevskiyga)

Rusiya tunidek qorong'i qafas.  
Unda payhon umr, bo'lmas hur nafas.  
Qafasda yotardi erk istar ko'ngil,  
Ming alam o'tida yonar edi dil.  
Qon to'lib, to'lg'onib oqadi Neva,  
Dard bilan chulg'anib boqadi Neva:  
To'lqini alamli xuddi shu dilday,  
Ingraydi, qaqshagan g'arib bir elday,  
Dil tinglar qafasda Neva sozini,  
Eshitar yo'qsilning mung ovozini.  
Eshitar Rusiya qishloqlaridan  
Volga-yu Yenisey qirg'oqlaridan,  
Yo'qsil el dodini, oh-fig'onini,  
G'am ichra o'rtangan el armonini.  
Eshitar turmada, zavod, shahardan,  
Qora tunda qaqshab, turib sahardan  
Ishchining erk istab aytgan zorini,  
Yuragini ezgan g'am ozorini.  
Dil to'lqin uradi, nafratlar qat-qat,  
Zarracha so'ramay taqdiridan shafqat.

\* \* \*

Rusiya qorong'i g'am go'shasida,  
Hurriyat istading, ey vatangado.  
Hurriyat istading, tushding quvg'inga,  
Bir umr g'am bilan orzular ado.  
Otashin qalbingda oliyjanob ishq –  
Hurriyat orzusi yondi bir umr.

Niyating yetaklab boshladi olg'a,  
Sen undan qaytmading, ko'zda borki nur  
Razillar shohiga million yurakning  
Nafratin, g'azabin dadil so'ylading.  
Zindon makon bo'ldi senga kun-u tun,  
Erksizlar-chun yorug'likni o'ylading.

\* \* \*

Prometey tangrini zor qaqshatib,  
Olovini erksiz elga keltirdi.  
Olov bilan tug'gan ona yurtiga,  
O'z xalqiga yorug'lik qasrin qurdi.  
«Cho'qqidagi Prometey» sen bo'lib,  
Baxt izlading, el bo'lsin deb shod.  
Kun o'tar, oy o'tar va o'tar yillar,  
Baxtiyor xalq doim seni etar yod.

*Samarqand,  
1939-yil, oktabr.*

## VATAN QASIDASI

I

Hayotning bir kuni asrlarga teng,  
Mazmuni ulug'vor baxtimizdek keng.  
Yashamoq – saodat, o'lmoq pushaymon,  
Orzular barg yozar, yo'q dilda armon.  
Ko'ngillar shod erur umr to'yida,  
Bir umr to'y erur baxtning uyida.  
Baxt demak – yashamoq, o'ynamoq demak,  
Baxt demak – kuylamoq, ham kulmoq demak.  
Baxt guli ochilgan, qulf urgan xandon,  
Bu gulning boshida ona yurt posbon.  
Yashash – baxt-saodat shunday Vatanda,  
Mehri ham, ishq ham qaynar shu tanda.  
Baxtiyor kunlarim, farovon hayot,  
Vatanimning o'zi qo'ydi menga ot.  
Nuri-la ulg'aydim, ko'zimni ochdim,  
Ko'zidan ko'zimga nur oldim, sochdim.  
Yuragim urarkan Vatan ishqida,  
Men shodman yashagum oltin ko'shkida.  
Dunyo-dunyo orzular menga yor bo'ldi,  
Dunyo-dunyo sevinchga dillarim to'ldi.  
Baxtiyor kunlarda ulg'aydim, o'sdim,  
Boshimni siladi shu Vatan, do'stim.  
U bilan dillar shod, ko'ngil chin kushod,  
Qaynoq mehri yashar dilda umrbod.  
U bilan yayraydi g'amsiz dillarim.  
U bilan sayraydi erkin tillarim.  
U bilan men borman yorug' zamonda,  
U bilan o'saman men shu jahonda.  
Uning ishq dillarimni band etgan,  
Uning ishq ellarimni band etgan,

Uning nomi kurashlarda erk – yalov.  
Uning nomi yovga bo'lgay o't-olov.  
Vatan ishq bilan urar yuragim,  
Vatan ishq bilan ulug' tilagim.  
Ko'nglim shod, baxt-saodat yo'ldoshim,  
Sen bilan ko'klarga yetdi – bu boshim.  
Mayli, buyur, postingda men turayin,  
Yov ko'ksiga qo'ndiq bilan urayin.  
Chegarada turmoq mening armonim,  
Dilimdagi ulug' tilak, farmonim.  
Mayli, buyur, onamning hurmati-chun,  
Mayli, buyur, o'g'lingning shuhrati-chun!

II

Cho'ponlarning nayiga sen jo'rovoz,  
Jumanbulbul kuyiga sen sarafroz.  
Sha'ning uchun kuylaydilar bearmon,  
Suhbatlarda so'ylaydilar bearmon.  
Mehnatkashlar yallasida sen doston,  
Doston bilan to'lgan bu kun bir bo'ston.  
Mehrning bilan hamma yashar, zavq olar,  
Dilga sevinch, ishga madad, shavq olar.  
Sen, ey Vatan, bag'ring bukun guliston,  
Onalarning allasida sen doston.  
Noming bilan allalaydi bolasin,  
Alla bilan yupatar ko'z qorasin.  
Noming bilan ko'z ochadi chaqaloq,  
Sen bo'lursan uning ko'ziga chiroq.  
Ishqing bilan bo'yi o'sa, ulg'ayar,  
Yosh dilida senga mehr uyg'onar.  
Seni deya mushkul ishda ul mag'rur,  
Seni deya ko'zlarida balqir nur.

Noming bilan ulg'ayib, u tilga kirar,  
Noming bilan ulg'ayib, u elga kirar.  
Chaqaloqning to'ng'ich so'zi – Vatandir,  
Onasining ko'rar ko'zi – Vatandir!

III

Ey, inson ko'ziga nur sochar quyosh,  
Omon bo'l, ko'zlardan sira oqmas yosh.  
Sen demak – yashamoq, yashnamoq demak,  
Sen demak – zafarga boshlamoq demak.  
Ko'z ochgan insonning tilagidir shul:  
E, Vatan! Omon bo'l, mangu omon bo'!

*Samarqand,  
1939-yil, sentabr*

SUV VA NUR<sup>1</sup>

(Doston)

I

Mehnat qo'shdi umrimizga bol,  
Mehnat bilan gul ochar iqbol.  
Mehnat – sharaf, mehnat – shon ekan,  
Mehnat borki, nurli istiqbol.

Mehnat berdi ijod, ilhom, kuy,  
Mehnat berdi dabdabali to'y.  
Samarasi har kun bayramdir,  
Mehnat berdi yangi fikr – o'y.

Mehnat ko'ki chunon seryulduz,  
Mehnat fasli bahori kunduz.  
Orzumiz yillar mehnat edi,  
Unga qo'ydik begard ishq-ro'z.

Elga husn, yuzimizga shon,  
Qalbga sevgi, kuchimizga shon.  
Shu bergandir, shunda mehrimiz,  
Shundan topdik behad rizq-u non.

Mehnat borki, kular tilaklar,  
Mehnat borki, vulqon yuraklar.  
Mehnat zavqi-shavqi shirindir,  
Quvvat olar bel-u bilaklar.

---

<sup>1</sup> Asqad Muxtor bilan hamkorlikda yozilgan. (Muallif)

Ko'kragimiz g'ayrat bulog'i,  
Suvlar oqar, gullar el bog'i.  
To'lqinida suzaylik bearmon,  
Baxt – insonning mehnat qilmog'i.

Mehnat bo'lsa hayot – hayotdir,  
Mehnat senga temir qanotdir.  
Mehnat bilan ko'kka uchaylik,  
Tomoshabin bor koinotdir.

Vatan ko'rsin ming huzur bilan,  
Quyosh ko'rsin olam nur bilan.  
Dunyo-dunyo qudrat bayroq bo'ldi,  
Ko'z-ko'z qildik ming g'urur bilan.

Yangi zamon ko'rki – mehnatdir,  
Yangi olam erki – mehnatdir.  
Xalqimizning sevgan, tayangani  
Va muqaddas mulki – mehnatdir.

II

Yoshlikni-da o'zing bergansan,  
Dilga chiqmas bo'lib kirgansan.  
Sharaf senga! Butun umrimizni  
Gul yoshlikka aylantirgansan.

Biz asorat ko'rmay ulg'aydik,  
Elga yoshlik dovrug'ini yoydik.  
Yoshligimiz ochgan g'unchalarning,  
Har bittasi bir to'lin oydek.

Ne nasllar qon-yosh to'kdilar,  
Ne asrlar izsiz cho'kdilar.  
Ular yoshlik ko'rolmayin azal,  
Qonli o'kinch tortib o'tdilar.

...Qum tog'idan, Vobkent yog'idan  
Nurotaning tosh qishlog'idan,  
Kela berdik, cho'llar notinch bo'ldi,  
Nor tuyaning qo'ng'irog'idan.

Karvon yurdi, haftalar yurdi,  
Tog'-u, tosh-u cho'l bosib yurdi.  
To'zon tutdi Shahrisabz cho'lin,  
Yo'lda yovuz qum-bo'ron turdi.

Kela berdik, har yondan keldik,  
Shofirkondan, Jizzaxdan keldik.  
Azoblarni yengib, toshlarni yanchib,  
Dovon oshib, uzoqdan keldik.

Kela berdik, ont ichib keldik,  
Suv uchun deb qum kechib keldik.  
Bog'chalardan, zumrad dalalardan  
Shafqat quchib, boz uchib keldik.

Nechuk g'orat barpo bu qadar?  
To'lqinlari daryo bu qadar?  
Nega, qaydam, mardona bardosh?  
Nega notinch sahro bu qadar?

Tingla, Vatan, javob beraylik,  
Marjon-marjon so'zlar teraylik.  
Cho'pon yigit fojiasin tingla,  
Tingla, eldan bayt keltiraylik.

Hayot mash'um his tuydiradi,  
Kun bir yong'in, kun kuydiradi.  
Mudhish soya solib osmonda,  
Tutun kabi ajal yuradi.

Suv! Za'faron yaproq intizor,  
Qovjiragan tuproq intizor.  
Na gul yayrar, na bir bulbul sayrar,  
Bog'-u chorbog' qaqroq, intizor.

Qani endi shabboda yelsa,  
Qani ko'kka bir bulut kelsa.  
Bulut kelsa gavhar donlari,  
Ekinzorga guvlab to'kilsa.

El osmonni kuzatar mahtal,  
Yolvorib qo'l uzatar mahtal.  
Behuda roz falak tinglarmidi?  
Ko'p asrlar etgan orzu-hol?

Sarob yurar kuz telbanamo,  
Qatra vafo qilmaydi samo.  
Entikadi, tomchi suv deydi yurt,  
Deydi bir dam nafas olsam-o!..

III

Zar tashuvchi Zarafshon – chiroq,  
Qon-u jondan suv afzalliroq.  
Tuya tortar ketmoqda fuqaro,  
Xayr desinmi yoki alfiroq?

Xayr desinmi yoki alfiroq –  
Ayon: Arslon taqdiri, biroq –  
Ne mavj? Farmoni! Bosh tortgan elda  
Zer-u zabar osmoni tuproq...

Amir itday quturgan derlar,  
Yurtga ofat keltirgan derlar.  
Fuqaroni battar ezmoq uchun,  
Suv yo'liga g'ov qurgan derlar.

To'g'on oshib suv toshar emish,  
Tovushi ko'kka chirmashar emish.  
Suvning vahshiy telbaligida  
Ming dard bilan ul yashar emish.

Suv toshibdir, g'ov buzilibdir.  
Amir ko'zi qonga to'libdir.  
O'zi suv yo'lin bekitmoq uchun  
Elining o'zin quvmoq bo'libdir.

Faqirlar ko'z yoshlab ketdilar,  
Yor-qo'rlarin boshlab ketdilar.  
O'zlariga qabr kavlash uchun  
Beklar molin tashlab ketdilar.

Ne-ne jonlar benishon bo'ldi,  
G'ijduvon ham qabriston bo'ldi,  
Adolatsiz amir amri bilan  
Yorug' dunyo zimiston bo'ldi.

Xarob bo'ldi vodiy behayot,  
Na suv, na jon qoldi nihoyat.  
Osmonidan quzg'un daydib uchar,  
O, naqadar ayanch u hayot!

Qishloq, ko'rinar jonsarak qizlar,  
Ruxsorida yo'q qatra qirmizlar.  
Saratoning namozgari xunuk,  
Bir-biridan xunuk kunduzlar.

Tuproq hamon olovlanmoqda,  
Ammo qo'rqinch, zulmat har yoqda.  
Faqat amir haram xonasida  
Ishrat shami xira yonmoqda.

#### IV

O'n yillardir ko'rishmay diydor,  
O'g'il cho'lda cho'pon, intizor;  
Qahraton qish, jazirama yoz,  
Qon yutadi yig'lab zor-u zor.

G'arib dilda tanburi hamdam,  
Yig'lab nola aytar gohi dam.  
El zorini kuylaganda o'zi,  
Qishlog'ini eslaydi mudom.

Qo'biz so'ylar g'amgin bir g'azal,  
Dardi-mungi suvsizlik azal.  
Bardosh tori uzilganday bo'ldi,  
Kulbasiga yo'l oldi jadal.

Ravshan bordi g'arib eliga,  
O'tli so'zlar olib tiliga.  
Isyon qilib, to'g'onni buzmoq  
Jur'atini joylab diliga.

## V

Bog'lar tashna, bog'da yonar o't,  
Suv ko'rmayin xazon bo'lgan yurt.  
Tashnalikdan qaqshagan borliq,  
Qurib ketgan maysa, giyoh-o't.

Ariqlarda dard-g'am oqadi,  
Suv oqmaydi, alam oqadi.  
El ko'nglining osmoni xira,  
G'am buluti benom oqadi.

Uzoqlarda suv jo'shar hamon,  
To'lqinlari darg'azab yomon.  
Oqishiga termilganlarning  
Dili siyoh, ranglari somon.

Dahshatidan sahro qaltirar,  
Ko'piklari toshar, yaltirar.  
Buncha baxil ekan Zarafshon,  
Ne arzlarni yerga qoldirar.

Tokay, – deydi Ravshan, – el xarob?  
Tokay orzu bemanzil sarob?! –  
O'z xalqiga sodiq navqironning  
Vujudida qaynadi g'azab.

El kulsa der, yig'lamasa der,  
Yurak-bag'rin tig'lamasa der.  
O'tlog'imda suv serob bo'lsa-yu,  
Ko'zi ochdan ingramasa der.

Mana, uning orzu-armoni,  
Mana, uning ahd-u paymoni.  
Shuning uchun jonin tikkandir,  
Isyon qilmoq yurak farmoni!

Qishloq uni mardonam, deydi,  
Qahramonim, parvonam, deydi.  
Qorong'uda erk uchquni bo'lgan,  
Yorug' nurim, durdonam, deydi.

Kuchiga teng kelar kuch yo'qdir,  
Kuchiga duch kelar duch yo'qdir.  
Balo kelsa elga qalqon o'zi,  
Ko'zi o'tdir, so'zlari o'qdir.

## VI

Qishloq ahli to'plandi shunda,  
G'azab mayi ko'plandi shunda.  
Ahd qildilar jon ketguncha deya  
Hamma bir tan bo'lgandi shunda.

Sahro to'lib yurdi olomon;  
Ravshan yonib so'zlaydi hamon.  
– Amir endi qahrimizni ko'rsin,  
To'g'oniga toshqin bo'laman!

Ravshan oldda yolqin – olovdir,  
Olomonga go'yo yalovdir.  
Xalq g'azabi qayralgan qilich,  
Har birining yuragi dovdur.

Bu der g'azab qudrati isyon,  
To'g'onni dast keltirdi yakson.  
Yakdillikning haddi-ko'yi bilan,  
Mushkulot ham bo'larkan oson!

Suv to'liqini to'g'onga urdi,  
Cho'lga telba daryo yugurdi.  
Tuyatortar nihoyasiz vodiy,  
Umrida bir qonib suv ko'rdi.

Talvasaga muftalo saroy,  
Qo'shin yurdi olib qalqon, yoy –  
Xalq ustiga ot choptirib kirdi,  
Shu kun bo'yi qon oqizdi soy.

Yana alam yog'di osmondan,  
Tutun chiqdi zor-u fig'ondan.  
El ko'ziga olam qorong'i tun,  
Qora tog'dir, qora farmondan.

Qaqroq yer qon bilan yuvildi,  
Olamning bor ko'rki quvildi,  
Oh, murdalar qoldi sahro to'lib,  
Hayot bitgan bo'lib tuyuldi.

Nido urdi bir parcha qog'oz,  
Hukm aytdi mudhish bir ovoz.  
Amirning nohaq amrin eshitganda,  
Yorilganday bo'ldi ko'k gumbaz.

Suv hayqirmay g'afatda qoldi,  
Butun borliq hasratda toldi.  
Shum jabrlik o'lim ro'yxatida  
Boshlab Ravshan nomi ataldi.

## VII

Avaxtada sham yoqadilar,  
Motam tutar o'tloq, adirlar.  
Odam-a, oh, odam ko'kragiga  
Zaharlangan mix qoqadirlar...

Til bormaydi aytmoq uchun, oh,  
Mushkul jabr tortar begunoh.  
Na haqorat ko'rar inson sha'ni  
(Hamon yolg'iz haqiqat guvoh!)

Qon sapchiydi, qonda yotar u,  
Ingrar... O'zi navqiron, suluv.  
Nechuk qizg'anch, hayot nomiga ham  
Shirin vido, aytolmay o'luv:

– «Zinhor, – deydi – insonsiz, axir,  
O'ldiringiz qiynamang, og'ir.  
O'ldiringiz, yolvoraman, zinhor,  
Azobimni ko'rmoq azobdir».

Tap tortmadi jallodning joni,  
Butkul maraz ekan vijdoni.  
Go'ng tepaga tushgan oltin kabi,  
Poymol bo'ldi yigit paymoni.

Umlari naqadar pastkash,  
Odam boqsa, ko'ngil bo'lar g'ash,  
Nahot bular uchun o'lmaklikdan –  
Afzal bo'lsa shu jirkanch yashash?

Jallod mixni beayov tepdi,  
Hissiz ekan oh, nobud etdi...  
Nor yigitning bedor ko'zlarida  
Eng so'nggi nur yaltirab ketdi.

Ravshan elning ravshani edi,  
Shavqi edi, ham sha'ni edi.  
Xarob bo'ldi razil qo'llarda, u –  
Fuqaroning farmoni edi.

## VIII

Hamon vodiy xarob, behayot,  
Na suv, na jon qolgan barhayot.  
Osmonida quzg'un daydib uchar,  
Hamon suv zor arz-u rivoyat.

Hamon qishloq olovlanmoqda,  
Hamon qo'rqinch zulmat har yoqda.  
Faqat amir haram xonasida  
Ishrat shami xira yonmoqda.

Ota keldi, u g'olib keldi,  
Ortdan Ravshan ulg'ayib keldi.  
Ammo uyda intizor singilga,  
Suv o'rniga shum xabar keldi.

Suv kelmadi, dard sasi keldi,  
Yurtga ajal g'ussasi keldi.  
Sho'rlik singil xor endi, umrbod –  
Baxtsizlik qissasi keldi.

O, Ona haram yonida,  
Xor etilgan aysh ayvonida.  
Yirtiq ko'ylak kiygan, tani ko'rinar  
Telbanamo to'lg'anganida.

Goh kimgadir nafrat so'ylaydi,  
Goh tikilib nadir o'ylaydi.  
Quloch ochib goh kuladir ayanch,  
Goh ma'nosiz qo'shiq kuylaydi.

Bu azobga o'zga ne chora,  
Ne dil borki bo'lmas ming pora?  
Sochi to'ziq, kunlar darbadar u,  
Aqlidan ozgan bechora.

## IX

Amir zulmin iskanjasida,  
Istibdodning g'am panjasida,  
El suyagiga qadaldi pichoq  
Qashshoqlikning tor kulbasida.

Ro'shnolikni ko'rmay ko'zi hech,  
El ko'nglini o'rtadi o'kinch.  
Olmoq uchun Ravshan qasosini  
G'azab o'ti yondi erta-kech.

Qadalganday ko'ksiga xanjar,  
Kulfat ichra yashadi bashar.  
Suvsizlikdan quriganday sillasi  
Erkka tashna edi shom-sahar.

...Buxoroda otdi yangi tong,  
Yangi turmush, erkin mehnat, ong.  
Elni yangi hayot sari chorlab,  
Erk gudogi tongda urdi bong!

## X

...Yillar Majnun, Laylosi suvdir,  
Ko'p yoshlikni marg etgan shudir.  
Suv hattoki buyuk Alisherning  
Umrini band etgan orzudir.

Suvga qongan faqat biz bo'ldik,  
Ruxsat kutib toqatsiz bo'ldik.

Ruxsat bering, Daryopolvon ham,  
Tog'polvon ham o'zimiz bo'ldik.

Suv bu – elning noz-u ne'mati,  
Suv bu – elning zeb-u ziynati.  
Ariqlarda suv to'lib oqsa,  
Bu – o'lkaning naqshi san'ati.

O'tmishdan nolib suv kelur,  
Cho'lga hayot olib suv kelur.  
Nurli yo'ldan o'ynab, chayqalib,  
G'ulg'ular solib suv kelur.

Bog'imizga yana bog' qo'shar,  
Olu pishar, shaftoli pishar,  
Dashtda mehnat tantana qurganda –  
Kun Zarafshon bilan o'pishar.

Suv oqardi, to'lqini dengiz,  
Ravshanidan tunimiz kunduz.  
Suv oqarki, oftob mehr to'kar,  
Shonimizning har biri yulduz.

...Tashakkurni kim ham aytmaydi,  
Ko'kimizdan quyosh ketmaydi.  
Ming qasida yozsak, yoshligimiz  
Madhiyasi sira bitmaydi.

Jangga kirsak tog' qadar yurak,  
Shamshir kabi qayrilmas idrok.  
Elni desang Quyosh kabi ko'zlar,  
Yondiruvchi o't so'zlar kerak.

*Samarqand,  
1939-yil*

## BAXTLILAR YURTI

I

Qop-qora hayotda zor yig'latib umr,  
O'tgandi zarracha ko'rmay yorug' nur.  
Dillardek qorong'u, kunduz kuni tun,  
Ko'zlarga ko'rinmas kunduz, yorug' kun.  
Qalb to'la orzu bor – osmonlar qadar,  
Qalb to'la alam bor, ezar g'am qadar.  
Orzular payhondir, xonumon xarob,  
Qop-qora hayotda yashash ko'p azob.  
Umid qo'l cho'zarkan talpinib hamon,  
Zarracha shafqat yo'q, baxtsizlik yomon.  
Sabr-toqat tugab, jangga der tilak;  
Qo'zg'alar nafrat-la isyonkor yurak.

II

Ozodlik mevasi shu buyuk vatan,  
O'zgarib keng qo'yni bo'lgan gul chaman.  
Kulib el bog'ida abadiy bahor,  
Erk quchib xalq bugun bo'lgan baxtiyor.  
Bizlarga hayotbaxsh quyosh nur sochib,  
Turmushning chiroyi kundan kun ochib,  
Baxtlilar bo'stoni bo'lgan elimiz.  
Quvonch ham shodlikka to'lgan dilimiz.  
Kimsasiz qaqragan sahro-cho'llarni,  
O'zgartirib, yaratdik chaman gullarni,  
Vodiyar bag'rini qurshagan ko'klam,  
Bizdagi o'zgarish juda ham ko'rkam.  
Kun sayin avj olib bizda qurilish,  
El, hayot gullagan, quvonchli turmush.

*Samarqand,  
1939-yil*

JON BERIB...

*(Qahramon ispan xalqining  
ikki yillik kurashiga atab)*

Biri och, yalang'och g'arib onasini,  
Kelardi frontdan holin so'rashga.  
Ayriliq alamin tortib ikkisi,  
Xor bo'lgan, zor bo'lgan diydor ko'rishga.

Ko'rolmas onasin, zambarak o'qi,  
Bukilgan qomatin yakson qilgandir.  
Joy topolmay jon qo'yishga bechora ona  
«Oromim qayda?» deb, nochor o'lgandir.

Bolasin ko'rolmay, dildor onalar,  
Gunohsiz o'ldilar, ming armon bilan.  
Bir tandir otalar, frontda g'olib  
Safarbar bo'lganlar erk-farmon bilan.

Panohsiz qoldilar, qishloq xaroba,  
Vayron qildi «Junkers» Gitler farmoni.  
Otlandi nafrati Ispan xalqining.  
Bir tildan o'lim deb, g'azab-armoni.

Istiqlol ishqini dilda jo aylab,  
Erkinining postida posbon o'zlari.  
Zim-ziyo tun bo'lsin mizg'imas shunda,  
Dadildir yuraklar, sergak ko'zlari.

Ikki yil to'lmoqda jonning sadosi,  
Buyuk Alp ustidan yangrab o'tmoqda.  
Qon berib, jon berib ortda qoldirib,  
Ispanning mard xalqi o'zib-yutmoqda.

*1939-yil*

## O'LKAM

Yurakda ishonch uyg'otgan  
Vatan – bog'im, huzurimdir.  
Hayotimni bol qilib bergan,  
Ki, baxt tog'im, g'ururimdir.  
G'ururimsan, aziz o'lkam,  
Sen ilhomim, sururimsan.  
Yuzimga sen ziyo berding,  
Ko'zimda chaqnagan nurimsan.  
Bo'lur ko'z-ko'z jahonlarga,  
Sharaf-shonim va dong'imsan!

Hayot berding va ong berding,  
Ki, baxtimsan, chiroyimsan.  
Yozar yaproq ulug' orzu.  
Kular iqboli oyimsan.  
Bo'lur mo'l noz-u ne'matlar,  
Oqar chashmayu soyimsan.  
Quyosh, Oyga husn bergan  
Bahor, gul chiroyimsan,  
Olov ilhom-u ongimsan!

Chaman o'lkam, quyosh o'lkam,  
Bahor bo'lib o'tar yillar.  
Bog'-u bo'ston, tog'i ko'rkam,  
O'sar rayhon-u jambillar.  
Hayotning bunda zavqi bor,  
Farog'atda yashar ellar.  
Turmushning zavq-lazzatini  
Kuylagay, armoni yo'q dillar.  
Ilhom topar dilda, o'lkam,  
Sen qo'shig'-u oq tongimsan!

*Samarqand,  
1940-yil, 12-fevral*

## JANG QIL!

Fikrim senda, jang qil, madorim!  
Qayrab olgan yarog'ing bo'lay,  
Qon ichida o'rtog'ing bo'lay,  
Jang qil mening madorim, orim!

Jang qil, yovga omon bermagin,  
Jang qil, baxti – bahorim uchun;  
Yorug' mash'al diyorum uchun,  
Jang qil, mening mehribon yorim!

Jang qil, baxtim payhon bo'lmasin,  
Ko'z yoshlarim ummon bo'lmasin.  
Shodmon ko'ngil hech qon bo'lmasin,  
Jang qil, mening baxtim, bahorim.

Istaymanki, kunduzning kuni,  
Tunning so'nmas yulduzi bo'lgin,  
Adolatning sen ko'zi bo'lgin,  
Jang qil, mening hayotim – borim.

Kerak bo'lsa tez bayon etgin,  
Jang ichida namoyon bo'lay,  
Zafaringda men ayon bo'lay,  
Jang qil, yongan chirog'im, yorim!

*1941-yil*

## OFARIN

Ketdi dong'ing o'lka bo'ylab, jangda o'g'lon,  
ofarir  
Mardligingdan yov boshiga yog'di to'fon, ofarin.

Shamshiring bor qayralibdir o'ch – adolat toshiga  
Shiddating bor yovga ofat, etdi payhon, ofarin.

Kul qilib ko'kka sovurmoq yovni oliy farz erur,  
Sen elim deb yovni qirding, mard-u maydon,  
ofarin

Arg'umoq ustida lochin – sen zafarning elchisi,  
Mayli javlon ayla jangda, toza vijdon, ofarin.

Ol qasos, o'g'lon, g'animdan barcha ketgan  
qon uchun  
Senga tikmish el ko'zini, qayna vulqon, ofarin.

*1941-yil*

FONTAN YONIDA  
(*Petergof esdaliklari*)

Havo tiniq, ko'nglimday oppoq,  
Bulutlardan asar ko'rinmas.  
Shabnam bilan cho'milgan yaproq,  
Gulshanlarga ko'zlarim to'ymas.

Yengil shamol Samson yonida  
Gullar bilan o'ynashar edi.  
Fin to'lqini ba'zan g'uwillab,  
Qirg'oq bilan so'ylashar edi.

Bu yer bo'ldi bizning sayrgoh,  
Fontan sochar munchoq donalar.  
Sehrlanib qoladi nigoh,  
Orom berar sho'x shabbodalar.

Ko'z oldimda cho'milgan dengiz  
Mo'jizasi dilni tortadi.  
Oqshom bo'lsa, ko'kdagi oy ham  
Shundan chiqib, shunga botadi.

Zavqim qaynar husningga boqib,  
Sayr etganda so'lim bog'ingda.  
Gullaringdan chakkamga taqib,  
Qolsam deyman sho'x quchog'ingda.

*Leningrad,*  
*1938-yil*

## NAVOIYGA

Pahlavon asrning umri tugamas,  
Bu umr olamning avvali boshi.  
Yanchilib ketar va hatto sovrilar  
Yalang'och qoyalar qop-qora toshi.

O'z qadri-qimmatin topdi o'lkamdan  
Yanchilmas, sovrilmas durdonalaring.  
Otash qalbdan chiqqan oltin satrlar  
Bezadi she'riyat koshonalarin.

Latif soz qo'lingdan tushmasin sira,  
Sotqinlarga nafrat aytib, qulatding.  
Qadr-qimmat hamda vafoni kuylab,  
Birodarlik ham do'stlikni uyg'otding.

Farhodiga vafo qildi mard Shirin,  
Nomard Xusrav yuragini chok etdi.  
Bosh egmadi, ham qo'rqmadi o'limdan,  
O'z orzusi, sevgisini pok etdi.

Ixlosmand dilimning nuri diydasi:  
Farhoding, Bahroming, Shirin, Shopuring.  
Nur, sevgi, vafo-yu mardonalikni  
Namoyon ayladi sening ash'oring.

Sevgisiga vafodorlik, mard turish –  
Faqat bizga xislat bo'lgan, bizga yor.  
Ey, she'riyat diyorining quyoshi,  
Sen qalbimiz uyin etding munavvar!

*Samarqand,  
1938-yil, 30-sentabr*

## QAHRAMON XOTIRASI

*1942-yil 6-fevralda Shimoliy-g'arbiy front uchastkalarining birida mashhur razvedkachi, gvardiya katta leytenanti G'anijon To'ychiyev halok bo'ldi. Uning qabri ustida askardan tortib generalgacha yig'ladi va uning o'limi uchun yovuz dushmandan qasos olishga qasamyod qildi.*

I

«Vatan – yurak, baxt, shirin orzu,  
Yuraklarda ishqi barqaror.  
Agar jangda qaytsam orqamga –  
La'nat o'qing. Yashashim bekor».

Shunday edi uning shiori,  
Shunday qasam dilga yozilgan;  
Zafar bilan kuting deb, undan –  
Otash maktub elga yozilgan.

Bir kun edi to'polon shamol,  
Qor – dengizda to'lqin hayqirar.  
Razvedkaga ketar qahramon,  
Yolg'iz o'zi, dilda ne kezar?

Manzil uzoq, yo'lda o'lim bor,  
Ammo G'ani ketardi mag'rur.  
Zafar topgay, albatta, zafar –  
Der o'ziga, qalbida g'urur.

– Ruxsat eting, o'rtoq komandir,  
Buyrug'ingiz ijro qilindi!  
Yo'lda qo'ygan bir tuzog'imga  
Bitta ko'ppak kelib ilindi.

– Ofarin senga, sherzoda,  
O'zbek nomi shonga ko'mildi.  
Jangda topgan shuhratlaringni  
Zafar nomi bilan el bildi.

II

Buyruq keldi – boshlandi hujum,  
Osmon to'la o'qlar yomg'iri.  
Odam o'lar, qalbida olov –  
Chaqnab ketar ko'zdagi nuri.

Tong paytida shahar olindi,  
Shunda halok bo'ldi G'anijon.  
Uchta orden qoldi ko'krakda,  
Tomirlarda yurmay qo'ydi qon.

Yig'lama, dil, yig'lama zinhor,  
G'ani nomi shioring bo'lsin!  
G'ani qabrin tuprog'ini o'p,  
Unga qalbing mehri to'kilsin!

*Shimoliy-g'arbiy front,  
1942-yil, 6-fevral*

## BELGRAD QIZI

Ko'zi chaqmoq, yuzi to'lin oy,  
Quyosh kabi ravshandir chiroy.  
Nur yog'adi anor yuzidan  
Va tomar nur ikki ko'zidan.  
Tabassumga to'la pista lab –  
G'uncha yuzni ochgan ertalab.  
Qalbi jo'shqin, to'lqinli dengiz,  
Yuzida yo'q hech qayg'udan iz.  
Qiz onaga bir hayot edi  
Va qayrilmas bir qanot edi.  
Otasining suyangan tog'i,  
Ham qalbida orzu bulog'i –  
Qizi edi. Qizga mehri band,  
Mag'rur edi, ko'kragi baland!

Oylar o'tdi, ota jang qilar,  
Jangda har kun fashistni qirar.  
Qalbi bo'lgan qasosning koni,  
Yashil o'rmon esa makoni.

Zo'r zarbadan talvasada yov,  
Partizanlar jangi beayov.  
Bir shom edi, fashistlar keldi  
(Qiz qalbini g'azab, o'ch tildi).

Ko'rdilarki, sohibjamol qiz  
Va bebaho husni kamol qiz.  
Quturgan it qizga tashlandi,  
Baxt va nomus jangi boshlandi.

Qalbida o'ch, otashin ona  
Qiz boshida edi parvona.  
Qiz kurashar, yuzlaridan qon  
Oqar edi ko'ksiga shu on.  
Ko'zlarida marjon-marjon yosh,  
Ammo aslo egilmadi bosh.

Ajal olib kelgan qora yov,  
Qiz qalbida yoqdi o'ch-olov.  
Qolgunicha so'nggi tomchi qon  
Qiz olishdi yov-la beomon...

Ota qaytdi shu kuni tongda  
Uyni topdi qop-qora qonda:  
Xotin o'lgan, qiz edi behol,  
So'zlamogga yo'q edi majol.  
Olov tushib yana joniga,  
Shu kun olib qizin yoniga,  
Chiqib ketdi o'rmonga qarab,  
Yuraklarda o't olib g'azab.  
Shundan beri belgradlik qiz,  
Quyug o'rmon tunida yulduz,  
Partizanlar yonida turib,  
Kurashmoqda qoni jo'sh urib.

*1942-yil*

## SENI DEB KELDIM

Sevdim seni Vatan, sevgim muqaddas,  
Sevar seni har bir pokiza inson.  
Sen qalxim, nomusim, sensan qadrdon.  
Mana front, mana jang, seni deb keldim.

Ko'zim ko'r bo'lsa-da, oyoqlar cho'loq,  
Seni yod qilganda qushday uchaman,  
O'qni yov boshiga do'ldek sochaman,  
Mana front, mana jang, seni deb keldim.

Miltig'im qasamyod qiladi mening,  
Nayzamdand dushmanga ajal uchadi.  
Miltiqdand dushmanga o'lim yog'adi,  
Mana front, mana jang, seni deb keldim.

Qalbim o't dushmanga...  
Mana jang maydoni mardlar yig'ilgan,  
Oyoqlar ostida murdalar xirmon.  
Alplar olg'a borar, yovga yo'q omon.  
Mana front, mana jang, seni deb keldim.

*G'arbiy front,  
1942-yil*

JANG QILAMIZ ONA,  
SEN UCHUN

I

Ona senga qasamyod etdik,  
Qasam qasos ontidek mahkam,  
Bitta yurak, bir g'oya bilan  
Jangga ketdik saflar mustahkam.  
Jang qilamiz ona, sen uchun  
Tanda tomchi qon qolguncha deb.  
Qasam ichdik el ozod bo'lsin!  
Gitlerchilar qon yutguncha deb.  
Sen deb ona, biz farzandlaring  
Qonlar kechib qahramon bo'ldik.  
Yerda, suvda, hattoki ko'kda  
Zafar quchib, pahlavon bo'ldik.  
Jang qilamiz ona, sen uchun  
Yorug' jahon biz bilan hamdam.  
Gitler kuli ko'kka sovrilgay,  
Jahon jangda bir dam, bir qadam.

II

Ishon ona, yurak qonimiz  
To'kilgan yer baxt qoni bo'lar,  
Ona uchun farzand qilsa jang  
Farzand umri shonga ko'milar.  
Hurriyatning kitobida biz  
Sira o'chmas doston bo'lurmiz  
Biz adolat, biz odamizod  
Tarixiga vijdon bo'lurmiz.  
Shodlik to'lar butun jahonga  
Zafar tug'i hilpirar mag'rur.  
Shunda jahon, shunda odamzod,  
Odam bo'lib chin yashar masrur.

*Staraya Russa,  
1942-yil, 4-fevral*

## ONA NASIHATI

Nomard bo'lib kunda o'lguncha,  
Mard bo'lgin-u, vatan deb o'lgin.  
Onang qilgan eng oliy orzu –  
Jang ichida qayta tug'ilgin.

Sen – umidim, umrim, o'g'lonim,  
Nafas olsam, toza havosan.  
Ko'zlarimga sira o'chmas nur,  
Ko'ngil yarasiga davosan.

Shuning uchun yubordim seni,  
Yovlarimni yakson qilgin, deb.  
Qon to'ksang-da, mard turib jangda,  
Mushkulimni oson qilgin, deb.

Qilich bilan zaharli yovning  
Qismatiga sen o'lim yozgin.  
Mard bo'lgin-u, umring tarixin  
Shon-u sharaf bilan to'lg'azgin.

Yo'l ko'rsatsin senga G'alaba,  
Qonlar to'kib, iqbol yaratgin.  
Oq sut haqi, qildim nasihat,  
Qardoshlarning yoshin aritgin!

*1943-yil, 2-sentabr*

O'LKAM, OMON BO'L!  
(*Qo'shiq*)

Olamga erk mayog'i,  
Qallda sevinch bulog'i,  
Iqbolimning chirog'i,  
O'lkam, omon bo'!

Shon to'la bir jahonsan,  
Baxtga to'la makonsan,  
Qallda aziz bir jonsan,  
O'lkam, omon bo'!

Bahorimning ziynati,  
Bog'larimning ne'mati,  
Iqbolimning qiymati,  
O'lkam, omon bo'!

Qasd aylamish razil yov,  
Jang boshladik beayov.  
Zafar bo'lur, yurak dov,  
O'lkam, omon bo'!

Jahon senga tikar ko'z,  
Sen jahonga bir yulduz.  
O'chmas baxtsan, nur, kunduz,  
O'lkam, omon bo'!

*1943-yil*

## JANGCHI

Biz jangchimiz, xalqning jangchisi,  
Bu nom bizga vatan in'omi,  
«Dushmanlarga qirg'in soluvchi»  
Bo'lmish bugun jangchining nomi.

Biz haqlimiz, na'ramiz mag'rur.  
Vatan uchun to'kmoqdamiz qon!  
Fashistlardan el ozod bo'lsin,  
Shu yurt yana bo'lsin charog'on.

Ona yurtning keng yo'llarida  
Makkor dushman o'lib bitajak!  
Bu ulug' jang dunyoga yana  
Totli hayot hadya etajak.

Botir jangchi – u ozodlikdir,  
Hurriyatdir uning shiori.  
Botir jangchi kelar kunlarning  
Iftixori, nomusi, ori!

Yillar o'tar, asrlar o'tar  
Jangchi nomi doim bo'lar yod...  
Shu mard jangchi o'tgan ellarda  
Porloq hayot bo'lajak bunyod.

*1943-yil*

QASOS OL!

*(Do'stimning qahramonona  
o'limiga bag'ishlab)*

Uning nomi o'lmas afsona...  
Quyosh kabi ko'rgay umrlar.  
Asrlarning tarixi undan,  
Sira o'lmas doston erurlar.

Qayg'urma dil, unga ofarin,  
O'limlarni o'ldirib o'ldi.  
O'lim dami, mard turib jangda  
G'alabani keltirib o'ldi.

Do'stim o'ldi jangda shon bilan  
Shunday o'lim o'zi bir iqbol.  
O'lka dedi: «Qani jangga kir!  
Do'sting uchun yovdan qasos ol!»

*1945-yil*

## BAYRAM TONGI

Kunduzini quyosh uyg'otar,  
Shu'lasini ko'rib tong otar.  
Shu'la bilan nurafshon hayot,  
Jamolini mudom boyitar.

Nur manbahi mashriq munavvar,  
Tun betiga mudom tong yozar.  
Dil mulkida mo'tabar o'lka  
Tongi otar husni zeb-u zar.

O'lkam tongi naqadar go'zal!  
Husn berar olamga azal.  
Jamoliga oshiq bo'lib kun,  
Diyorimni bezar, berib hal.

Keng o'lkamda bayram – tantana,  
Dillarda zavq qilar po'rtana.  
Har kun bayram, hilpirar bayroq,  
Xitob etar olamga yana.

Shu o'lkada bashariy tilak,  
Shunda orzu yuksalar, o'sar.  
Qonli jangda qildik g'alaba,  
Baxtli kunga bo'lib muyassar.

*Samarqand,  
1945-yil*

## PO'LAT QUYUVCHI

Yagona ish, oliy intilish –  
Ishda bo'lar Po'lat azondan.  
Shijoatni ko'rganda temir  
Suvday oqar erib qozondan.

Mehnat bilan topadi shuhrat,  
Joni fido jangovar ishga...  
Otash yonar, qarshida go'yo –  
Quyosh kelgan olqish aytishga.

Yuragida g'ayrat yonadir,  
Po'latni ham eritgan g'ayrat.  
(O't ichida qayta toblanish –  
G'ayrat paydo qilgan jasorat).

Yigirma yil olov ichida,  
Po'lat bo'lib quyulgandir tan.  
Olov bilan jon bo'lib kirgan,  
Ishchi qalbgga shu ulug' Vatan.

Yagona ish, oliy intilish –  
Ishda bo'lar Po'lat azondan.  
Shijoatin ko'rganda po'lat  
Suvday oqar erib qozondan.

*Samarqand,  
1946-yil, dekabr*

OTA

Yetmishda yosh bo'lib maydonga tushding,  
O'lkamga qonsirab kirganda ag'yor.  
Mehnatning jangidan zafar yaratding,  
Qalbingda g'ayratning chindan o'ti bor.

Qasaming qayraldi g'ayrat toshiga,  
Mehnat daryosidan to'lqin yaratding.  
Ketmon mo'jizasin qilib namoyish,  
Fidokor kuchingga elni qaratding.

Qirq yillik qadrdon ketmon hamdaming,  
Qo'riqning qalbiga sen g'o'za ekding.  
Ko'rakda o'n gramm oltin o'stirib,  
Mamlakat tomriga zafar qon to'lqin.

Beling to'la kuchdir, ko'zing to'la nur,  
Davrimday yuksaldi senda tafakkur.  
Qon tomar yuzingdan xuddi bo'zbola,  
Paxtaning shavqidan sen olib surur.

O'lkam dedi senga ming-ming ofarin,  
Olqishga ko'mildi qarilik shoni.  
Zafar yillarining yodgori bo'lib  
Ko'ksingda nur sochar sharaf nishoni.

*1946-yil, 14-noyabr*

## KUNDAN OLDIN...

U terimga chiqadi  
Kundan oldin kun bo'lib,  
Lahzalarga yarashgan  
Oydin jamol oy to'lib.

Labin ochib ko'saklar  
Uni har dam kutadi,  
Kechroq kelsa terimga  
Sog'inib g'am yutadi.

O'zi ham xuddi shunday  
Paxta bo'lgan ulg'ayib,  
Mehr bilan pishirgan  
Oliy terish niyati.

Har kun terar yuz kilo  
Hamma olqishlar uni,  
Unga ayon hamisha  
Paxta – hayot mazmuni.

Qiz paxta deb oq tergan  
Umrin qo'yib garovga,  
Qasamini bajarib  
O'lim kelturur yovga.

*1941-yil*

AZIZ PAXTAKOR

*Oppoq paxta bitgan serunum yerda  
Ozod mehnat zo'r jadal bilan  
Insonni qaytadan ko'kartirganda,  
Har minut sen o'zing biz bilan birga.*

*(Hamid OLIMJON)*

I

Esimda bor qirq birinchi yil,  
Bag'rimga o't tushgan olovli kunlar!  
Diyorim ko'kida qop-qora tunlar...  
Esimda bor qirq birinchi yil.

Esimda bor baxtli bog'imni  
Jahannam aylamoq istagan jallod,  
O'lim libosida kelib o'lkamga  
Murdalardan qildi xirmonlar bunyod.

Koinot ustida ajal quzg'uni  
Sayr etdi, olamga solib vahima.  
Jar solib dunyoga o'limdan, go'yo:  
Hayotki to'lqinda qolgan bir kema.

To'lqinlar qahrini yengib mardona,  
Kemani boshlardi ulug' kapitan.  
Janglar otashida u yo'lchi yulduz  
Zafarga ketardi butun bir vatan.

II

Urush borar edi qonli tus olib,  
Yomg'ir bo'lib yog'ar ko'kdan qo'rg'oshin.

Qo'rg'oshin yog'ardi, ajal xanjari  
Shart kesib o'tardi umrning yoshin.

Ajalga ajal bo'ldim men unda har choq,  
O't bo'lib yonardim, jang qilar edim.  
O'lim esa mendan to'rt qadam yiroq  
Turardi, men unga hamla qilardim.

Nemis – o'lim edi, men edim – hayot,  
Menga qo'l cho'zardi butun koinot.  
Men – adolat edim, u edi – ofat,  
Men – saodat edim, uldir kasofat.

U bilan qon kechib olishar edim,  
Tuproqqa belanib solishar edim.  
Shu damda sen kelding madadkor bo'lib,  
Mo'l paxta – o'q-dori, g'azabga to'lib.

III

Sen kelding ko'makka aziz paxtakor,  
Sen kelding dushmanga shiddatim oshdi.  
Sen kelding ko'paydi qudratim, qahrim,  
Dushmanga g'azabim yana tutashdi.

Sen kelding tanimga yangi jon olib,  
Sen kelding tomrimga yangi qon olib.  
Sen kelding snaryad, o'q olib menga,  
Sen kelding urushning avji boshlandi.

Sen kelding urushning avji boshlandi.  
To'lqinlar beayov otash nahridda.  
To'plarning damidan olovlar yondi,  
G'alaba kelardi bombang qahridda.

Yengilib yov qochar, hujum beayov,  
Ajallar yog'ildi unga paxtangdan.  
Jangchilar qo'lida muzaffar yalov,  
Tabriklar va so'zlar g'olib baxtingdan.

#### IV

Ont ichding umringni qo'yib o'rtaga,  
Qilichday qayralib maydonga kelding.  
Manguga yozildi ismingdan qasam,  
G'alaba jangining ilhomi bo'lding.

Mardona ont ichding, aziz paxtakor,  
Mehnat dengiziga tashlading o'zni.  
Qalbingda hukmron bo'ldi bir orzu  
«Yuzdan so'zlasin kuzda tarozi».

Ter to'kding qasamni bajarmoq uchun,  
Asrlar dashtiga boshlading isyon.  
Qasamning toshiga qayraldi g'ayrat,  
Qudrating qo'riqda yaratdi tug'yon.

Yuraging tog' ekan, g'ayrating buloq,  
Mehnat dengizida sen eding lochin.  
O'lkamiz paxta deb berganda buyruq,  
Qudrating paxta deb yozdi qulochin.

#### V

Mehnating mo'jiza yaratdi cho'lda,  
G'ayrating ko'p edi daryoda suvday.  
G'ayrating, mehnating, mehning suvidan,  
Har nihol o'sardi dilda orzuday.

G'ozaday ko'kardi sendagi havas,  
Mehnating bog'ini lolazor qildi.  
G'ozalar qulf urdi, uning tomriga,  
Ishqing daryosidan sharbat to'kildi...

## VI

Naqadar baxtlisan, aziz paxtakor,  
G'alaba to'yiga shon bilan kelding.  
Qurultoy yalovi bo'ldi shuhrating,  
O'lkam olqishiga to'lding, ko'milding.

Rozidir el sendan, rozidir vatan,  
Shuhrat kitobida noming sarlavha.  
Mehnating gashtidan yangi bog' ochding,  
Tarixning betida sen o'chmas lavha.

Men keldim dushmanni abadiy yanchib,  
Sharafga to'ldirib umrimni, yo'ldosh.  
Zafardan sovg'alar qilib sen uchun,  
Paxta deb ko'makka keldim, tilakdosh.

Kel endi, bir bo'lib paxta ekaylik,  
Paxtamiz – baxtimiz, paxta sharaf-shon.  
O'lkamiz paxta der, paxta der diyoy,  
Vatan muhabbati dillarda nishon.

## DO'STINGA MAKTUB

Ko'zingning qarosi bo'lmish diyoring,  
Yovdan saqlamoqlik nomus-u oring.  
Seni jang, ey do'stim, qayta yaratsin,  
Jangda zafar sening bo'lsin shioring.

Qasos ol, g'animdan shiddatga to'lg'in,  
Qonli jang ichida qayta tug'ilgin,  
Ham surur, ham g'urur bo'lgan vatanga –  
Muqaddas sevgining mazmuni bo'lg'in.

Bir qadam orqaga siljima, o'g'lon,  
Yovga o't yog'ilsin go'yoki to'fon,  
Qiraver razilni, dam bermayin qir,  
Hur nafas olguncha shu yorug' jahon.

## ZARAFSHON

*(Katta Zarafshon kanali fidokorlariga)*

Ona xayol suradi...

Yolg'izi ko'milgan suvning boshiga,  
Zolimlar zahar sochgan uning oshiga  
Yana ba'zan xudo der, yig'lar, yolvorar,  
Najot hech, bag'ri qon, suvga termilar,  
O'ynab-o'ynab oqar edi telba Zarafshon.  
Boqar unga sho'rlik ona, ko'ngli parishon.  
Ko'ringanday bo'lar undan Ravshanning yuzi,  
Ko'ringanday bo'lar undan Ravshanning ko'zi.  
Yana boqar ko'zlarida marjon-marjon yosh,  
Dili kuyar, bag'ri yonar, berolmas bardosh.  
Ko'zda yosh, dilda alam, sochlarin yular.  
Judolikning alamlari dillarni tilar.  
Nima qilsin, qomati yoy, alam toshidan,  
Suv deganda Ravshan ketgan yolg'iz boshidan.  
Bola intizor otaga, ayriliq yomon,  
Ayriliq yomondir, kuydirar hamon.  
Shunday bo'lgan yolg'izim deb, ona to'kkan yosh,  
Ayriliqning alami-la olib ketgan bosh.  
Qarib ota jafo bilan ketgan surgunga,  
Nima qilsin bu tashnalik soldi shu kunga.  
Bir avloddan nom qolmadi, nishon qolmadi,  
Hayot oti bir avloddan asar qolmadi.  
Yana qayg'u, yana alam, yana kuymoq dil,  
Yo'qchilikning ohi bilan xarob bo'lgan el.  
Sabr-toqat bitgan endi yo'qsillar bir til,  
G'azab bilan to'lqinlanar g'arib, tashna el,  
Ketmon, o'roq, bolta, tesha qo'llarda qurol,  
Hamma bir teng «Borlig'ingni kel, o'rtaga sol»,  
Hamma borar g'azab bilan tilak, armon bir.

## JAMOLING

Termildim ko'zlaringga, ofat oromijon jamoling,  
Hargiz sog'insam go'zal, ulfatijon jamoling.

Menga boqar vafodor, kunmi jonon jamoling,  
Yuzlaringda tabassum kunmi jonon jamoling.

Har ko'zga bir quyoshsan, har yurakka bir armon,  
Qilmish dilimni xumor, sevgi makon jamoling.

Oshiqclaring ko'p ekan, Sharof biri parvona,  
Zor etma, ey qizgina, ofatijon jamoling.

## SAN'ATKOR QIZGA

Chashma suvdek zilol dillaring,  
Qo'shiqchidir biyron tillaring,  
Muncha mohir ko'rkam qo'llaring,  
Hurmat senga, yoshliging kulsin.

Yuzing oydek, unda yo'q g'ubor,  
Senga «mehmon» bo'lmas alam, zor,  
Baxtiyorsan kuyla, mana tor,  
Jaranglasin san'ating, sozing.

Ko'kragingda porlar nishoning,  
G'olib san'at, baxt – sharaf-shoning,  
Sho'x zamonda kulgusi dong'ing,  
Hurmat senga, yoshliging kulsin.

*Samarqand,  
1937-yil*

## SINGILGA

Navbahoring chamanzorida,  
Gullar terding quvnab, dastalab.  
Kulib boqqan fazodagi oy  
Jilva qilar senga erkalab.

Bu Vatanning yer yulduzlari  
Senday yorug', sen kabi quvnoq.  
Kulib turgan qora ko'zlaring,  
Mehnat bog'in guliga mushtoq.

Baxt bayrog'ing nurda tovlanar,  
Iqbolingni yo'q intihosi.  
Erk g'unchasi tinmay gul ochar,  
Sochlaringni silar sabosi.

Bu Vatanda bizlar do'st, qardosh,  
Yuragimiz tongdek beg'ubor.  
Boshimizda nur sochgan quyosh  
Bugun bizdek shod va baxtiyor.

*Jizzax,  
1937-yil*

## ISHQ QO'YDIM

Mudom ko'nglinga shavq bergan u hamdam yora  
ishq qo'ydim,  
Vafo, sevgini sof tutgan aziz dildora ishq qo'ydim.

Jamoli oydin o'zgandir, ko'zida laxcha yulduz bor,  
To'lin oyni uyaltirgan u oy diydora ishq qo'ydim.

Ko'ngilni berdim-u yorga, izlarin to'tiyo qildim  
Va ishqini dilga joylab, ko'zi xumora ishq qo'ydim.

Nigorning jazmidin zavqim oshar, qalbidam  
kon sevgim,  
Hayotim ziynati bo'lgan yuzi anora ishq qo'ydim.

Yigitlik bog'iga kirdim, sevilسام, sevsam arziydi  
Va qalbidam o'sar orzum, ajib gulnora ishq qo'ydim.

Umr bog'in o'pib, bir-bir fasllar g'ir-g'ir o'tmoqda,  
Chunon boldir to'yolmayman, hayot ham yora  
ishq qo'ydim.

*1938-yil*

## QUVONCHLI DILLAR

Dillardek oppoqdir oydin kechalar,  
To'lin oy samoda jilmayar edi.  
Oshiqdek ko'z uzmay telmilar edi,  
Dillardek oppoqdir oydin kechalar.

Oydin kecha sevgili dilbarim bilan  
Gul bog'larda quvonch gashtini surdik.  
Gulzorda gul terib, Oy bilan yurdik,  
Oydin kecha sevgili dilbarim bilan.

Erta bayram, dillarda zavqimiz jo'shar,  
Shirin suhbat, orzular unga bog'langan.  
Namoyish arshiga yurak chog'langan,  
Erta bayram, dillarda zavqimiz jo'shar.

Xayrlashdik charos ko'z dilbarim bilan,  
Shirin so'z, orzular, suhbatga qona.  
Bizga boqib Oy bo'ldi ko'kda parvona,  
Xayrlashdik charos ko'z dilbarim bilan.

Subhidam, zar kokilin quyosh yoymagan,  
Yoqut ufq, qizil atlas libos kiyardi.  
Bog' oralab, gul tutib dilbar kelardi,  
Subhidam, zar kokilin quyosh yoymagan.

Tong shamoli gullar-la o'ynashar edi,  
G'unchalar quyoshga yuzin ochardi.  
Yaproqlar oralab yog'du sochardi,  
Tong shamoli gullar-la o'ynashar edi...

*Samarqand,  
1938-yil, 1-may*

## G'UNCHA

I

Menga, go'zal, yubording,  
Oq shohidan ro'molcha.  
Ro'molchaga solingan  
Ko'p chiroyli bir g'uncha.

– G'uncha,– debsan,– ikkimiz –  
Mehr qo'ygan chin hayot.  
G'unchani uzmoq istar,  
Ajal olib kelgan yot.

G'unchani qil himoya,  
Jonim, sendan so'rog'im.  
Men – bir chaman, sen – bog'bon,  
Asra, uni chirog'im.

II

Zafar uchun yashayman,  
Jangda tug'ilsin iqbol.  
O'n yerimdan o'q yesam,  
Yov oldida bo'lmay lol.

Jang ichida, go'zalim.  
Olov bo'lib yonaman.  
Ajal keltirib yovga,  
To'lqin bo'b to'lg'onaman.

Mehr qo'ygan chin hayot –  
Sen yuborgan gulg'uncha.  
To o'lguncha asrayman,  
Gul bo'lib ochilguncha.

*G'arbiy-shimoliy front.*  
*1942-yil, 6-noyabr*

## BOG' KO'LIDA

Ko'lda o'ynar edi to'lin oy,  
Jamolini to'lqin oqizar.  
Ba'zan orom olganda to'lqin,  
Oy yozardi yana zeb-u zar.

Men ko'ldaman, ko'k dengizda oy  
Birga-birga men bilan suzar.  
Dilda alam, olam orzular,  
Toleyimda men bilan zafar.

Umid erur o'chmas quyoshim,  
Ko'zlarimga nuri quyilar.  
Bag'rim bahor, munavvar hayot  
Mudom menga o'z umrin ular.

Baxtim bayroq sevinch – tantana,  
Bog'da baxtiyorlar to'yidir.  
Chaman kezish, sayri bog' etish,  
Har yurakning shirin o'yidir.

*1942-yil, iyun*

## QIZ SEVGISI

Atakada o'q yedim yuzdan,  
Yuzni yuvar edi qizil qon.  
Hamon o'tman, olg'a uchaman,  
Qalbim yonar go'yoki vulqon.

Snaryadlar shunda yorilar,  
Tinmay sayrar edi pulemyot.  
Men uchaman, o'lim ko'rinmas,  
Yer-u osmon to'la olov-o't.

O'zdan ketdim, qorga yiqildim,  
Ko'zlarimda qorong'u jahon.  
Ko'zni ochsam, shom kirib qolgan,  
Yuzlarimni siypar bir jonon.

– Rahmat senga, ey jangovar qiz,  
Majruh qalbg'a baxsh etding hayot.  
Revolvorni berib qo'liga, –  
Dedim, – go'zal, mana, yovga ot.

– Biz etamiz yovlarni tor-mor, –  
Dedi go'zal, – Sizga ot tayyor.  
Va tanimga yugurdi darmon,  
Menga bo'ldi qiz sevgisi yor.

*1943-yil*

## SHIRIN XAYOLLAR

Suv bo'yida sayr etdim,  
Xayolim oqib ketdi.  
Go'yo to'liqlar bilan  
Yoringa borib yetdi.

Mana front, mana jang,  
Mana sevgan hamdam yor,  
Go'yo men ham yonida,  
Jangga kirishga tayyor!

Dilda hukmron tilak:  
Yor bilan jangga kirsam.  
Yorim, diyorim uchun  
Balolarni daf qilsam.

Yorim berdi avtomat,  
Kirdim yongan olovga.  
Sevgi haqi, qon haqi,  
Ajal yog'dirdim yovga.

Ko'zlariga termildim,  
Bag'riga otdim o'zni.  
Ko'zim yoshlari aytdi:  
«Sog'indim!» – degan so'zni.

Har kun shirin xayollar,  
Menga o'qiydi doston  
Va sevgimning bog'ini  
Aylar chaman, guliston.

Ey, sevganim, jangchi yor,  
Yovni tezroq tamom et!  
Senga umidvor dillar,  
Elni dorilomon et!

*1943-yil, 2-sentabr*

## YOR KELUR

Yor kelur, yozim kelur,  
Yurakda orzum kelur,  
Xuddi to'liqindan toshib,  
Daryoyi – azim kelur.

Ko'pdan meni zor etgan,  
Qalbimga ozor etgan,  
Yor kelur uzoqlardan,  
Dilni intizor etgan.

Bag'riga bosh qo'yarman,  
To'yib-to'yib o'parman,  
Jondan aziz yorimni  
Diydoriga to'yarman.

Kelsin deyman aziz yor,  
Yurakni qildi xumor,  
Ko'p sog'indim dildorim:  
Zafar bilan kelgin, yor!

*1943-yil*

## UYALMA

Men ketganda ancha yosh eding,  
Bog'bon qizi – gullar erkasi.  
Mana endi oydek to'libsan,  
Yuragimning sho'x arzandasi.

Menga atab gullar ekibsan,  
Ochilibdi xuddi o'zingday.  
Gullaringga xushtor yulduzlar  
Termiladi charos ko'zingday.

G'uncha edi qalbimda sevgi,  
Endi chaman bo'lib ochildi.  
Otashlarda toblanib, erkam,  
Yo'llaringga durday sochildi.

Sog'inganim, muncha qizarding,  
Yuzing bo'ldi xuddi naqsh olma.  
Uzoqlardan keldim seni deb,  
Kel, go'zalim, endi uyalma!

*1944-yil, 2-sentabr*

## KELSANG

(*Qo'shiq*)

Bir umr shodmon bo'lurman,  
Zafarimga shon bo'lib kelsang.  
Daryo bo'lib toshgay sevinchim,  
Dostoni jahon bo'lib kelsang.  
Yov boshiga yog'dirib ajal,  
Qaynar vulqon bo'lib kelsang.  
Men bo'lurman sendan minnatdor,  
Rustam namoyon bo'lib kelsang.  
Onang rozi ming bor sendan,  
Yovga to'fon bo'lib kelsang.  
Elga vabo bo'lmish yovni,  
Yengib, shodmon bo'lib kelsang.  
Jahon seni qo'shiq etar,  
Mardi maydon bo'lib kelsang.  
Bitta qolmay qirib yovni,  
Dovrug'i doston bo'lib kelsang.

*1943-yil*

## SHIRIN XAYOL KELARMISH

Bag'ri bahor o'lkaning  
Husniga xol kelarmish.  
Oydin o'zib jamoli  
Toleyi hilol kelarmish.

Xayol edi dillarda,  
Doston edi tillarda,  
Sayxun bandi bo'larkan,  
Obi-zilol kelarmish.

Tole kular, baxt kular,  
Cho'lda sevgi yetilar,  
Sayxun bo'yida bayram,  
Shirini bol kelarmish.

Yangi zafar, yangi shon,  
Qahramonlik chin nishon,  
Yangi umr, yangi to'y –  
Shirin xayol kelarmish.

Jangda qozondik zafar,  
Umruga iqbol yozar.  
Diyorimga nur sohib,  
Shirin jamol kelarmish.

*1944-yil*

## KELINCHAK

(*Ballada*)

Ikki kun yor bilan ko'rganingda kun,  
Judolik kulfati tushdi boshingga.  
Jang tomon yo'l oldi sevimli kuyov,  
Hijron tomchisini qo'shdi yoshingga.

Jon shirin, jondan ham ming bor yor shirin  
Joningni, ey go'zal, jangga uzatding.  
Bo'yniga qo'l tashlab, ko'zda yosh bilan  
Diydoriga to'yolmay, yorni kuzatding.

Shu vatan haqi deb, mardona kuyov  
Jamoling shavqiga to'yolmay ketdi.  
Vasling chamanida yagona bog'bon  
Ochilgan gulini suyolmay ketdi.

Yor ketdi, sevgisi ulg'ayib ketdi,  
Qalbida yorini saqlab jang tomon.  
G'alaba shiori – sevgiga garov,  
Sevgidir ko'ksida o'q o'tmas qalqon.

Sevgiga qo'shilgan vatan taqdiri,  
Sevgiga qasd qildi odamxo'r jallod.  
«Sevgini himoya aylamoq savob!» –  
Deding-da, yor bilan qilding qasamyod.

Qasamyod aylading: qo'lingda ketmon,  
Mehnat janglarida sen bo'lding lochin.  
Mo'l hosil olgin deb ona tuproqdan,  
Paxtazor sen uchun ochdi qulochin.

Yetmishta nemisni o'ldirganda yor,  
Paxtadan yaratding kattakon xirmon.  
Sharafga burkading ismingni jangda –  
Ordenga muyassar bo'lding, qahramon!

Yoringni jo'natgan kunlarda yig'lab –  
To'kilgan yosh uchun afsus qildi ko'z.  
Mehribon yoringning mehri olovdur,  
Muhabbat o'tlari qalbingda navro'z.

Yuraging tog' ekan, ming bor ofarin,  
Bardoshing qudrati keltirdi yorni.  
Uch bahor intizor bo'lgan yuraklar  
Ming-ming karra rozi qildi diyorni.

Yor keldi, o'limni o'ldirib bu kun,  
Mard umr tarixga shon yozib keldi.  
Yetmishta nemisga keltirib ajal,  
Ko'ksini nishonga to'lg'azib keldi.

G'alaba qo'lini uzatdi senga,  
Baxting bor, ey sanam, go'zal kelinchak!  
Chamanlar ko'ksini ochdi sen uchun  
Mehnatda yayragan, yashnagan chechak.

Qora ko'zlaringda iqbol yulduzi,  
Lo'ppi yuzlaringda bir olam sevinch.  
Intizor qalbingda visol kulgusi,  
Hayoting zavqidan to'yib-to'yib ich!

Yor keldi: yangi to'y, yangi tantana,  
Yor esa qaytadan tug'ilgan kuyov.  
Sen yana dilafro'z yangi kelinchak,  
Abadiy o'limga mahkum bo'ldi yov.

*1945-yil, 2-iyun*

## UMR BAHORI

Umr bahoriga endi kirganman,  
Naqadar shirindir minutlar, kunlar.  
Asrlar umrining mazmuniga teng –  
Umrinning mazmuni bo'lgan yakunlar.

*Umr*im mazmunini mehnatdan izlab,  
G'ayrat dengiziga tashladim o'zni  
Va lochin singari dengizda g'olib –  
Keldim-u, boshladim umri navro'zni.

Navqiron o'lkada o'sdim, ulg'aydim,  
Shu o'lka baxtimning bulog'i bo'ldi.  
Baxtinga qasd qilgan odamxo'r jallod,  
Ozodlik jangida go'rga ko'mildi.

Hayot deb janglarda ketgan yigitlar,  
Zafar bahorida qaytib keldilar.  
Umrini sharafga to'ldirib undan  
Iqbol qo'shiqlarin aytib keldilar.

...Umr bahoriga endi kirganman,  
Naqadar shirindir minutlar, kunlar.  
Asrlar umrining mazmuniga teng –  
Umrinning mazmuni bo'lgan yakunlar.

*Samarqand,  
1946-yil, may*

## TO'LIN OY

To'lin oy, toleying baland kelibdir,  
Ozod el ko'kida yayra bearmon.  
Bag'riga bosadi seni ko'k dengiz,  
G'alaba osmoni – baxtiyor osmon.

Naqadar baxtlisan, To'lin oy, erkam,  
Shodlik nuri bilan to'libdir ko'zing.  
Tahsinlar o'qigin qahramon elga,  
Quzg'unlar vahmidan ozod manziling.

Iqboling chirog'in yoqib abadiy,  
Yurting osmonida yonar zo'r olov.  
Zafar salyutlari sendan ham baland,  
Chiqurlar jahonga ko'rsatib yalov.

Oshyoning tark etma go'zal kelinchak,  
Bunda to'y, tantana, abad kunduzlar.  
Shundan jahonga nur sochar mudom,  
Senga nur, senga baxt bergan yulduzlar!

To'lin oy, toleying baland kelibdir,  
Ozod el ko'kida yayra bearmon.  
Bag'riga bosadi seni ko'k dengiz,  
G'alaba osmoni – baxtiyor osmon.

*1947-yil, iyul*

## UXLA QO'ZIM

Uxla qo'zim, dildorim fasl,  
Orom olgin issiq qo'ynimda.  
Uxla o'g'lim, hayoting asl  
Ko'zni yumgin, ishqing bo'ynimda.

Uxla mening arslonim o'g'lim,  
Sochlaringni sevib siypalay.  
Boshginangda bo'lib parvona,  
Jonginam deb dildan allalay.

Shu o'lkaning ishqil bilan o's,  
Yuragimning sururi o'g'lim.  
Yovlarimga beayov bo'lgin,  
Ko'zlarimning sen nuri o'g'lim.

Bilgin qo'zim, baxtli onaning  
Bu bo'lg'usi mehri allasi.  
Sevgan ona – mehriboningni,  
Senga aytgan yangroq allasin.

SEVGI BILAN  
*(Front esdaliklaridan)*

Gar quyoshga aylasam safar,  
Sevgi bilan toparman zafar.  
Gar ajalga boshlasam isyon,  
Sevgi bilan yengishim ayon.  
Sevgi bilan ko'zlarim olov,  
Mardligimdan qaltiraydi yov.  
Sevgi do'stdir, sevgi yo'ldoshim,  
Sevgi bilan porlar quyoshim.  
Kechalarni uyg'oq o'tkazdim.  
Yulduzlarga termilib hamon,  
Qalbim to'la ko'p orzu-armon,  
Muhabbatdan nomalar yozdim.  
Uxlay desam, bosadi xayol,  
Ko'zim tushar yorning ko'ziga,  
Ko'zidagi juft yulduziga,  
Mushtoq bo'lib, termilaman lol.

Hamma yerda hamrohdir har on,  
Hatto jangda yurar yonma-yon.  
Razvedkada uni ko'raman,  
Hujum payti men bilan yurar,  
Qahr bilan olg'a yugurar,  
Zafarda ham birga bo'laman.  
Ukraina uchun jangdaman,  
Yorug' jahon meni kuzatar,  
Menga qarab qo'lin uzatar,  
Zafar olib oppoq tongda man,  
Bag'rim olov, g'arbga uchaman.  
Dilda shirin orzularim bor  
Omon bo'lsin shu aziz diyor!  
Sevgim haqi qasam ichaman.  
Sevgi quyosh, sevgi sharaf-shon,  
Sevgi bilan g'olibman har on!

## МУНДАРИЖА

|  |    |
|--|----|
| «Севги билан ғолибман ҳар он!» .....   | 6  |
| «Sevgi bilan g'olibman har on!» .....  | 14 |
| Ватан ишқи.....  | 33 |
| Меҳнатим.....  | 34 |
| Гул диёрим бор.....  | 35 |
| Эрк истар кўнгил ( <i>Н.Г. Чернишевскийга</i> ).....                             | 36 |
| Ватан қасидаси .....   | 38 |
| Сув ва нур ( <i>Достон</i> ) .....   | 41 |
| Бахтлилар юрти.....  | 53 |
| Жон бериб ( <i>Қаҳрамон испан халқининг икки<br/>йиллик курашига атаб</i> )..... | 54 |
| Ўлкам.....   | 55 |
| Жанг қил!.....   | 56 |
| Офарин .....   | 57 |
| Фонтан ёнида ( <i>Петергоф эсдаликлари</i> ).....                                | 58 |
| Навойга .....  | 59 |
| Қаҳрамон хотираси.....   | 60 |
| Белград қизи .....   | 62 |
| Сени деб келдим .....  | 64 |
| Жанг қиламиз она, сен учун .....   | 65 |
| Она насиҳати.....  | 66 |
| Ўлкам, омон бўл! ( <i>Кўшиқ</i> ) .....  | 67 |
| Жангчи .....   | 68 |
| Қасос ол! ( <i>Дўстимнинг қаҳрамонона ўлимига<br/>бағишлаб</i> ).....            | 69 |
| Байрам тонги.....  | 70 |
| Пўлат қуювчи.....  | 71 |
| Ота.....   | 72 |

|   |     |
|---|-----|
| Кундан олдин.....   | 73  |
| Азиз пахтакор.....  | 74  |
| Дўстимга мактуб.....  | 78  |
| Зарафшон ( <i>Катта Зарафшон канали<br/>фидокорлариға</i> ).....                      | 79  |
| Жамолинг.....   | 80  |
| Санъаткор қизга .....   | 81  |
| Сингилга .....  | 82  |
| Ишқ қўйдим.....   | 83  |
| Қувончли диллар.....  | 84  |
| Ғунча .....   | 85  |
| Боғ кўлида.....   | 86  |
| Қиз севгиси .....   | 87  |
| Ширин хаёллар .....   | 88  |
| Ёр келур .....  | 89  |
| Уялма.....  | 90  |
| Келсанг ( <i>Қўшиқ</i> ) .....  | 91  |
| Ширин хаёл келармиш.....  | 92  |
| Келинчак ( <i>Баллада</i> ).....  | 93  |
| Умр баҳори .....  | 95  |
| Тўлин ой .....  | 96  |
| Ухла қўзим .....  | 97  |
| Севги билан ( <i>Фронт эсдаликларидан</i> ).....                                      | 98  |
| Vatan ishqi.....  | 103 |
| Mehnatim.....   | 104 |
| Gul diyorim bor.....  | 105 |
| Erk istar ko'ngil ( <i>N.G. Chernishevskiyga</i> ).....                               | 106 |
| Vatan qasidasi .....  | 107 |
| Suv va nur ( <i>Doston</i> ).....   | 111 |
| Baxtlilar yurti.....  | 124 |
| Jon berib... ( <i>Qahramon ispan xalqining<br/>ikki yillik kurashiga atab</i> ) ..... | 125 |

|  |     |
|--|-----|
| O'lkam .....   | 126 |
| Jang qil!.....   | 127 |
| Ofarin.....  | 128 |
| Fontan yonida ( <i>Petergof esdaliklari</i> ) .....                              | 129 |
| Navoiyga .....   | 130 |
| Qahramon xotirasi .....  | 131 |
| Belgrad qizi .....   | 133 |
| Seni deb keldim .....  | 135 |
| Jang qilamiz ona, sen uchun.....   | 136 |
| Ona nasihati .....   | 138 |
| O'lkam, omon bo'!! ( <i>Qo'shiq</i> ).....                                       | 139 |
| Jangchi .....  | 140 |
| Qasos ol! ( <i>Do'stimning qahramonona</i><br><i>o'limiga bag'ishlab</i> ) ..... | 141 |
| Bayram tongi .....   | 142 |
| Po'lat quyuvchi.....   | 143 |
| Ota .....  | 144 |
| Kundan oldin.....  | 145 |
| Aziz paxtakor .....  | 146 |
| Do'stinga maktub.....  | 150 |
| Zarafshon ( <i>Katta Zarafshon kanali fidokorlariga</i> ) .....                  | 151 |
| Jamoling .....   | 152 |
| San'atkor qizga .....  | 153 |
| Singilga .....   | 154 |
| Ishq qo'ydim.....  | 155 |
| Quvonchli dillar .....   | 156 |
| G'uncha.....   | 157 |
| Bog' ko'lida.....  | 158 |
| Qiz sevgisi.....   | 159 |
| Shirin xayollar.....   | 160 |
| Yor kelur.....   | 161 |

|  |     |
|--|-----|
| Uyalma .....                                     | 162 |
| Kelsang ( <i>Qo'shiq</i> ).....                  | 163 |
| Shirin xayol kelarmish.....                      | 164 |
| Kelinchak ( <i>Ballada</i> ).....                | 165 |
| Umr bahori.....                                  | 167 |
| To'lin oy.....                                   | 168 |
| Uxla qo'zim.....                                 | 169 |
| Sevgi bilan ( <i>Front esdaliklaridan</i> )..... | 170 |

## **Рашидов, Шароф.**

Р 31 Севги билан ғолибман ҳар он! [Матн]: шеърлар тўплами / Шароф Рашидов. – Тошкент: «Niso Poligraf», 2020. – 176 б.

ISBN 978-9943-6100-6-4

**УЎК 821.512.133-1**

**КБК 84(5Ў)6**

*Адабий-бадиий нашр*

## **СЕВГИ БИЛАН ҒОЛИБМАН ҲАР ОН!**

**Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоат Фонди**

Муҳаррир *Абдулборий Зиёдов*

Муқова муаллифи ва саҳифаловчи *Инна Сандлер*

Компьютерда тайёрловчи *Таир Абкеримов*

Оригинал-макет «Niso Poligraf» нашриётида тайёрланди.  
Тошкент вилояти, Ўрта Чирчиқ тумани, «Оқ-ота» ҚФЙ,  
Машъал маҳалласи Марказий кўчаси, 1-уй.

Лицензия рақами АИ № 265.24.04.2015.

Босишга 2020 йил 27 апрелда рухсат этилди.  
Бичими 84x108<sup>1/32</sup>. Офсет қоғози. «Segoe» гарнитураси.  
Кегли 11. Шартли босма табоғи 5,5. Нашр табоғи 5,11.  
Адади 3000 нусха. 237-сонли буюртма.

«NISO POLIGRAF» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Тошкент вилояти, Ўрта Чирчиқ тумани, «Оқ-ота» ҚФЙ,  
Машъал маҳалласи Марказий кўчаси, 1-уй.



26000

ирин мунаввар

дом тоил ёзар,

мунабар ғам,

чени збч-здр.

азадар чизал,

мига азал,

бўлиб муш-


бўлиб ҳал.

байрам таши

у қилар



ISBN 9789943610064



9 789943 610064